

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI
NASRITDINOV MUXAMMADJON ISMOIL O'G'LI
“BOBURNOMA” – MUHIM TARIXIY VA ETNOGRAFIK MANBA
SIFATIDA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent,
Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich

Namangan – 2018

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
 I BOB ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARINING YARATILISH TARIXI	
1.1. Zahiriddin Muhammad Bobur qomusiy olim.....	9
1.2. “Boburnoma” asari va uning yaratilish tarixi.....	21
 II BOB. “BOBURNOMA” ASARIDA TARIXIY VA ETNOGRAFIK MA’LUMOTLAR TAHLILI	
2.1. “Boburnoma” tarixiy manba sifatida.....	30
2.2. “Boburnoma” etnografik manba sifatida.....	45
 XULOSA.....	 55
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	 59

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mustaqil O‘zbekistonning strategik maqsadi – bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iboratdir. Buning uchun har bir O‘zbekiston fuqarosi, avvalo, shaxsiy faollik, bilimdonlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik kabi olijanob fazilatlar sohibi bo‘lishi lozimki, bu jarayon xalqimiz ma’naviy va ma’rifiy merosi, qadriyatlaridan unumli va samarali foydalanishni taqozo etadi.

Milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash ilmiy, tarixiy va ijtimoiy dolzarb mavzulardan ekanligi, bu borada xalqimizning ma’naviy, falsafiy merosini, har tomonlama o‘rganishni taqozo qiladi.

Mustaqil O‘zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo‘lidan ketayotgan mamlakatdir. Tarixdan ma’lumki, iqtisodiyot qanchalik rivojlangani sayin jamiyatda ma’naviyat va ma’rifatga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib boradi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, uzoq yillar, asrlar mobaynida sayqallanib, rivojlanib kelayotgan ma’naviy merosimiz jamiyatimizning ham moddiy, ham ma’naviy taraqqiyotida beqiyos va ahamiyatlidir. Ushbu ma’naviy merosni zamonaviy-tarixiy qarashlar nuqtai nazardan tadqiq etish ham ilmiy, ham ijtimoiy-amaliy ahamiyatga egadir. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ham shundadir.

O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov mustaqilligimizning ma’naviy-axloqiy negizlari to‘g‘risida to‘xtalib, bu negizlar umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, Vatanparvarlik¹ ekanligini ko‘rsatib o‘tganlar. Shu nuqtai nazardan tadqiqot mavzusining dolzarbligi quyidagilarda ko‘rinadi:

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. I - жилд. – Б. 76.

Milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash ilmiy, tarixiy va ijtimoiy dolzarb mavzulardan ekanligi, bu borada xalqimiz boy ma'naviy, tarixiy merosini, shu jumladan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosini ham har tomonlama o'rganish, keng xalq ommasiga etkazishni taqozo qiladi.

O'zbek xalqi ma'naviy merosi va muqaddas qadriyatlarining katta qismini ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar tashkil etadi. Bular jumlasiga, zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Xamsa"si va boshqa ko'plab nodir yodgorliklarni ko'rsatish mumkin. Mana shunday nodir va qimmatli manbalardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari hisoblanadi. Bugungi kunda ana shunday ma'naviy qadriyatlarimizni zamonaviy ilmiy usullar bilan tadqiq qilishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Alloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrining mazmuni anglashi, avvalombor, ruhiy poklanish, yahshilikka va ezgulikka intilib yashashda uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi"².

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevralda imzolangan farmoniga muvofiq respublikani rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishi sifatida "Havfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" belgilandi³.

"Boburnoma" asari Movarounnahr, Xuroson, Hindiston singari tarixiy hududlarda XV asr oxiri XVI asrning boshlarida sodir bo'lgan voqealar, bu davrda yashab o'tgan tarixiy shahslar, toponomik va etnografik ma'lumotlarga boy

² Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

³ 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йилида амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. –Т.:Маънавият, 2017. –Б.210.

tarixiy manbaa hisoblanadi. Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan hududlarda bugungi kunda O‘zbekiston, Tojikiston, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston singari davlatlar mavjud bo‘lib, avvalo xalqimizning o‘ziga xos tarixini, balki, ana shu davlatlarda yashagan qardosh xalqlar tarixini o‘rganish va uni yosh avlodga yetkazish dolzarb va ahamiyatli masala sifatida eng muhim vazifamiz hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilish darajasi. “Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari: ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. “Boburnoma”ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi. yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826 yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta 1878 va 1909-yillarda uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma”ning tarjimalari 9 marta nashr etildi. Keyingi yillarda “Boburnoma”ning professor V. Takston tomonidan AQSHda (Kembrij shahri, Garvard uni, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995-96) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi.

“Boburnoma” qo‘lyozmalari matnida 1504-1505, 1509-1518, 1520-1524 yillar tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo‘lgan o‘rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma’lum darajada tiklaganlar. “Boburnoma” 1586-yilda forschaga, undan parchalar 1705 Vitsen tomonidan golland tiliga, A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga, Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. “Boburnoma”ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg‘oniston (Abdulxay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy,

Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R . R. Arat va N. I. Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslaridan N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkinlar ham “Boburnoma”dan parchalarni tarjima qilganlar. N. I. Ilinskiy 1857-yilda “Boburnoma”ni Qozonda nashr ettirdi.

“Boburnoma” asarining bir necha marta soddalashtirilib, o‘quvchiga tushunarli tilda nashr qilingan hamda undagi tarixiy voqealar yoritilgan ko‘plab asarlar yaratilgan va yaratilmoqda. Jumladan, Porso Shamsiyev, V. Rahmonov⁴, H. Qudratillayev⁵, T. Fayziyev⁶ lar bu borada bu sohada tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Bu asarlar Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari tarixini o‘rganishda boy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Boburnoma” asarida keltirilgan ma’lumotlarni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish masalasi so‘ngi yillarga kelib jiddiy ravishda o‘rtaga qo‘yildi. Asrlar davomida tarix fani va sharqshunoslik erishgan yutuqlar va yuzaga keltirgan xulosalarni ilmiy nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish va baholashdek juda mas’uliyatli va murakkab muammo hali ham to‘la yechilgani yo‘q. Bunday sharoitda har bir muhim ilmiy masala bo‘yicha xilma-xil fikrlarning mavjud bo‘lishi tabiiy edi. Bu asar yuzasidan ham juda ko‘p fikr va mulohazalar o‘rtaga tashlangan hamda muhokama qilinib, muayyan echimini topgan. Mazkur bitiruv malakaviy ishida ana shu fikr-mulohazalarning ob’ektiv, nisbatan asosli, nuqtai nazarlaridan foydalanilgan. Islom Karimov asarlarida “Boburnoma” haqida olg‘a surilgan fikr-mulohaza va dasturlar asos qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. “Boburnoma”da uchraydigan tarixiy voqealar, toponomik va etnografik atamalar va ma’lumotlarni o‘rganish va uni chuqur tahlil qilish hisoblanadi. Bosh maqsadni tadqiq etish quyidagi vazifalarni hal qilib berishni taqozo etadi:

- “Boburnoma” asarini vujudga kelishi va uni olimlar tomonidan o‘rganilish tarixini yoritib berish;

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2017. – B. 39.

⁵ Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. – B.28.

⁶ Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т., 1995. – Б. 17.

- Asarda keltirilgan Movorounnahr, Afg'oniston, Hindiston va boshqa hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni tahlil qilish;

- Keltirilgan ma'lumotlarni boshqa manbalar asosida solishtirish va tahlil qilish natijasida "Boburnoma" asarini o'z davrini yoritishda qimmatli manbaa ekanligini asoslash;

- Asarda uchraydigan tarixiy toponomik nomlarni o'rganish va ularni hozirgi kundagi nomlari bilan solishtirish;

- "Boburnoma"da nomlari keltirilgan xalq va elatlar haqidagi etnografik ma'lumotlarni o'rganish va asoslash;

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asosini boyitishga Porso Shamsiyev va u tayyorlagan nashr asosida Vahob Rahmonov⁷ tominidan hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilingan "Boburnoma" asari bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritishda asosiy manbalardan bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish tadqiqotning obekti hisoblanadi. Asarda keltirilgan tarixiy voqealar, joy nomlari, xalq va elatlar nomlarini o'rganib uni boshqa asarlar bilan taqqoslash va tahlil qilish hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishi "Boburnoma" asarida yoritilgan 1493–1529-yillarni o'z ichiga oladi. Unda mana shu yillarda bo'lib o'tgan tarixiy voqea va jarayonlar tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov⁸ va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev⁹ asarlarida ilgari surilgan g'oyalar nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar

⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017.

⁸ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – 1998. – № 2. – Б. 2-3.

⁹ Ўзбекистон Республикасининг Президентининг "2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи - 2017. – № 28. Б. 1–2.

xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi ma'lumotlaridan oliygohlarda, "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi" fanlari va Bobur shaxsini o'rganish faoliyati yuzasidan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami betni tashkil etadi.

I BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARINING YARATILISH TARIXI

1.1. Zahiriddin Muhammad Bobur – qomusiy olim

Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ shohlari, buyuk allomalari yirik adib va shoirlari bo‘ladi¹⁰.

Insoniyatning abadiyatga mansub buyuk farzandlari sifatida shoh va shoir, mislsiz adib va tarixchi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z o‘rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Shu o‘rinda Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy faoliyati va ilmiy merosi haqida so‘z yuritishdan oldin, uning qanday qilib siyosat maydoniga kelib qolganligi haqida fikr yuritsak.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste’dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda.

Boburning otasi - Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo‘yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o‘tkazardi.

Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta‘lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she‘riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) laqabini oladi.

¹⁰ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2017 – B.7.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy – Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e‘tiqodga sodiq qoladi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.

O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan.

Bobur tabiatan ijodkor edi. Bobur 18–19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan.

Boburning o‘z she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo “Boburnoma”ning 1518-19-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan optik tuyuq va qit‘alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur “Mubayyin” asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan.

Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo‘lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539 Humoyunga aytgan), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod

ettirgan «Bogʻi Bobur»ga qoʻyildi. Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy asarlari qatorida “Boburnoma” asarining ahamiyati beqiyos.

“Boburnoma” asari Zahiriddin Muhammad Boburning hijriy 899, milodiy 1494-yilda Fargʻona hokimi boʻlgani bayoni bilan boshlanadi. Shundan soʻng otasi Umarshayh mirzo haqida maʼlumot beriladi. Asarda keltilishicha, uning shajarasi Umarshayh mirzo ibn Abu Said ibn Sutton Muhammad ibn Mironshoh deya keltiriladi. Mironshoh mirzo Amir Temurning uchinchi oʻgʻli edi. Umarshayh mirzo 1455-1494-yillarda yashab oʻtgan. Umarshayh mirzoga otasi Abu Said dastlab Kobulni suyurgʻol qilib bergan edi. Lekin biroz fursatdan keyin unga Fargʻona hokimligi topshiriladi. Buning sababini Bobur Amir Temurning oʻgʻli Umarshayh Mirzoga Fargʻona hokimligini berganligi va Abu Said ham huddi shu ishni qilganligi bilan izohlaydi. Akasi Sulton Ahmad davrida unga Toshkent va Sayram ham qoʻshib beriladi. Keyinchalik uning qoʻlida Fargʻona, Xoʻjand, Oʻratepa hududlari qoladi. Umarshayh mirzoning rafiqasi Qutlugʻ Nigorxonim boʻlib, u chigʻatoy naslidan boʻlgan Yunusxonning qizi edi. Toshkent Umarshayh mirzo tasarrufida boʻlib turgan kezlarda uni qaynotasi Yunusxonga bergan edi.

Yunusxonning vafotidan soʻng esa Toshkentni uning oʻgʻli Mahmudxon boshqardi. To 1502-yilgacha Toshkent va Shohruxiya shaharlari chigʻatoy xonlarining tasarrufida boʻldi¹¹. Umarshayx mirzoning yomon muomalasidan Sulton Ahmad va Mahmudxon ittifoq tuzib 1494-yilda biri shimol va janub tomondan Fargʻonaga bostrib kiradilar. Shunday vaziyatda Umarshayh mirzo Axxi qoʻrgʻonidagi jordan qulab vafot etadi. Hokimiyat 12 yoshli Bobur qoʻliga oʻtadi. Sulton Ahmad mirzo Oʻratepa, Xoʻjand va Margʻilon shahrlarini olib, Quvaga kelib tushadi. Andijonga oʻtish uchun Quvaning botqoq suvidan oʻtish kerak boʻlgan. Koʻprikdan oʻtish paytida koʻprik sinib Sulton Ahmad qoʻshinlarining bir qanchasi halok boʻladi. Bu askarlar orasida vahima uygʻotadi. Bundan tashqari otlar orasida tarqalgan oʻlat kasali va Andijon xalqining birdamligi kabi omillar tufayli sulh tuzib orqaga qaytishga majbur boʻladilar. Mahmudxon esa Axxini qamal qiladi. Bu davrda shaharda Boburning ukasi Jahongir Mirzo boshchiligidagi

¹¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Oʻqituvchi, 2017. – B. 46.

beklar shaharni mudofaa qiladilar. Mahmudxon natijaga erishmay sog'ligi yomonlashib orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Uchinchi tomondan Qoshg'ar va Xo'tan hokimi Abu Bakr dug'lat Qoshg'ariy O'zgandga yurish qilgan edi. Uni jazolash uchun Hoji Qozi ismli sarkarda yuborilib, Abu Bakr mag'lub etiladi.

Keyingi o'rinda "Boburnoma"da 1494-1495-yillardagi voqealar haqida bayon qilinadi. Samarqand hukmdori sulton Ahmad mirzo Andijondan orqaga qaytib O'ratepa tumanidagi Oqsuvga etganida qattiq isitma bo'lib to'satdan 44 yoshida vafot etadi. Samarqand taxtiga uning beklarining chaqirig'i bilan sulton Mahmud Mirzo taxtga chiqdi. Taxtni osonlik bilan egallagan sulton Mahmud mamalakatda beboshliklarni avjiga chiqaradi. Akasi sulton Ahmad davrida Samarqandda istiqomat qilayotgan Xoja Axror¹² va uning qaramog'idagi kishilar va ayrim faqir va kambag'allar xiroj va boshqa ba'zi soliqlardan ozod etilgan edi. Mahmud Mirzo esa ularni barchasini qayta soliqqa tortdi. Mahmud Mirzo mamlakatda besh-olti oygina hukmronlik qilib, og'ir kasallikka chalinib 43 yoshida vafot etadi.

Sulton Mahmud Mirzoning vafotidan so'ng Qunduz hukmdori Xisravshoh mamlakatda davlat mulkini talon-taroj qila boshladi. Bundan g'azablangan Samarqand xalqi g'alayon qilishga o'tlanadi. Xisravshoh Hisor tomonga qochadi. Mahmud Mirzo tirikligida Hisor viloyatini katta o'g'li Mas'ud Mirzoga ikkinchi o'g'li Boysung'ur mirzoga esa Buxoroni bergan edi. Xisravshoh ketganidan so'ng Hisor va Samarqand beklari o'zaro kelishib Boysung'urni taxtga chiqarishga kelishishadi. Shunday vaziyatda Toshkent hokimi Mahmudxon Samarqand tomonga lashkar tortadi. Bu urushda Bobur ham ishtirok etadi. Bu yurishlarda Isfara, Xo'jand, O'ratepa tumanlari egallanadi.

Shunday vaziyatda 1495-yilda Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro Hisor viloyatiga qarab hujum qiladi va Termizga yaqinlashadi. Hisorni ikki oy qamal qilib egallay olmaydi. Bu davrda Qunduz viloyatida hokimlik qilayotgan Xisravshoh ustiga ikki marta yurish qilib orqaga qaytgan sulton Husayn Balh shahriga kelganda bu viloyat hokimligini katta o'g'li Badiuzzamonga beradi. Asli

¹² Xoja Axror – asl ismi xoja Ubaydulloh ibn Xoja Mahmud ibn Xoja shahobiddin Shoshiy. 1404-1490 yillarda yashab o'tgan. O'rta Osiyolik mutafakkir, naqshbandiya tariqati namoyondalaridan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar Xoja Axrori o'zlariga ma'naviy ustoz deb bilganlar.

bundan avval uning viloyati bo'lgan Astrabodni esa kichik o'g'li Muzaffar Husaynga topshiriladi. Aynan mana shu voqea keyinchalik Xurosonda sodir bo'lgan o'zaro urush va fitnalarning sababi bo'lgan edi¹³.

Samarqand taxtiga Boysung'ur mirzo chiqqanidan so'ng 1495-1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axbi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo'jandga yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o'tganin eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O'ziga sodiq 200-300 kishilar bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga – Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, 2 yildan so'ng 1498-yilning iyunda uni qayta qo'lga kiritadi.

Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabototolamining bilimdoni sifatida ko'p qirrali faoliyati va ijod sohibi edi.¹⁴ Birgina “Boburnoma” uning yuzdan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir. Qisqa umri davomida Zahiriddin Muhammad Bobur ko'pgina asarlar yozdi. Ana shular orasida garchi

¹³ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017. – B. 69.

¹⁴ O'sha asar. – B. 17.

ularning hammasi bizgacha etib kelmagan bo'lsada "Boburnoma" tengi yo'q noyob asardir. "Boburnoma" ulug' bobomizdan qolgan eng muhim va yirik merosdir.

"Boburnoma" ning muhim va noyoblighi shundaki unda Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron xalqlarining bundan besh yuz yil ilgari tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasiga oid nodir ma'lumotlar berilgan¹⁵.

Darhaqiqat, Bobur jahongashta sayyoh va ulug' tabiatshunos olim bo'lgan. U yoshligidan sayohatda bo'lishni sevgan, safarlarga chiniqib Farg'ona vodiysini Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xisor va Hirotgacha bo'lgan barcha shahar va qishloqlarni vo'ha va tog'larni kezib, taqdir taqozosi bilan Afg'oniston, Eron, Pokiston va Hindiston o'lkalarida bo'lib, qimmatli ilmiy ma'lumotlar yozib qoldirgan¹⁶.

Zero Bobur o'zi qiziqqan har qanday soha bo'yicha chuqur bilimga, va katta ilmiy mushohadaga ega bo'lgan inson bo'lgan. U har bir sohani aniq bilishga intilgan va o'zi yashagan hukmronlik qilgan, ijod qilgan shaharlar Andijon, Qobul va Agra atrofidagi joylar aholisning etnik tarkibi, geografik tuzilishi, tabiati, ma'muriy bo'linishi, suvlari, vodiylari va u erlarda o'sadigan o'simliklar haqida batafsil ma'lumot berib, geologiya faniga xos qazilma boyliklar, geotektonik jarayonlar va zilzilashunoslik - seysmologiya faniga xos o'z fikr mulohazalarini ham aniq va ravshan tilda bayon etishi kishini lol qoldiradi, albatta. Bobur o'z zamonasida mamlakatda hamjihatlik o'rnatish bilan bir qatorda moddiy va manaviy boyliklar bunyod etib mo'l-ko'lhilikni ta'minlashga alohida e'tibor beradi. U joylarning tabiiy boyliklarini aniqlab tasvirlar ekan, ularning xo'jalikdagi ahamiyati insonlarga qanday nafi borligi haqida ham aniq malumotlarni bayon qiladi.

Bobur Mirzo o'z saltanatining sarhadlarini yaxshi o'rgangan bilimdon olim bo'lgan. "Boburnoma"da geografik ma'lumotlar oz emas. Bu haqda professor H. Hasanov batafsil izoh bergan. Bobur "Boburnoma"da 36 yil davomida olib borgan

¹⁵ Mashrabov Z, Shokarimov S. Asrlarni b'ylagan Bobur. – T.: E'zuvchi, 1997. – B. 150.

¹⁶ O'sha asar. – B. 151.

kuzatuvlarinining natijasini tasvirlagan bu maqsad uchun u kundalik daftar tutib ma'lumotlarni yozib borgan¹⁷. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'zining oromgoxi qilib qo'l ostidagi bepoyon yurtlardan eng xushhavo, tabiati go'zal joyni - Qobulni tanlagani bejiz emas. Qobul haqida o'zi shunday deb yozadi : "Iqlimi shunday jozibaliki, biz bilgan olamda buning tengi yo'qdir, Qobul arkida may ich, kosani ketma-ket shunday aylantirki, bu er ham tog', ham daryo, ham shahar, ham saxrodir".

Bobur, birinchi navbatta, shoh boburiylar sulolasining asoschisi. U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarining ulug'vor nashidalarini surishni ko'p marotaba boshidan kechirdi. Otasi singari ulug' himmatli va oliy maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intildi. U erda Shaybonixonidan yengilib, Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepoyon yirik mamlakat hukimdoriga aylandi.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'alarini davom ettirdi: muhtasham qasirlar tiklash ariq – kanallar qazish, bog'lar buniyot etish, adabiyot ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlarini keyinchalik Hindistonlik buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baxolanadi. Hindistonning buyuk donishmand farzandi davlat arbobi Javoharlal neru o'zining "Hindistonning ochilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Zahiriddin Muxammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izxori etgan:

"Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukumdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo'lgan.

Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng etuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobir san'at va ayniqsa adabiyotni sevardi"

Bugun Hindistonning Panipat shaxriga borgan kishi Zahiriddin Muhammad Boburning Sulton Ibroxim Lo'diy bilan bo'lgan jangi manzaralarni shaharning

¹⁷ Mashrabov Z., Shokarimov S. Asrlarni b'ylagan Bobur. - T.: E'zuvchi, 1997. – B. 158.

ochiq osmoni ostidagi muzeyda ko'rarkan, hind xalqining Boburga nisbatan hurmat extiromi kuchliligiga amin bo'ladi. Yoki Bangladesh poytaxti Dakka shaxrini kezgan kishi "La'l bog'-qala" tarixiy muzeyga kirib Bobur va boburiylarga bag'ishlangan xonalarni kezarkan, Bobur va uning vorislariga tegishli kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy qurol-aslahalar, Ustod Aliquli quygan toshotar to'plar, miltiqlar tufaklar sovut, qilich-qalqonlar, dubulg'a, ot kejimlarini (o'q va qilich zarbasidan himoya qiluvchi yopinchiqlar), o'sha davr kishilarini o'z zamonlari iqtiboslarida tomosha qilgan kishi Hindiston va Bangladesh xalqlarining Bobur va boburiylarga bo'lgan hurmatlarini yorqin tasavvur eta oladi.

Bu moziygohda bo'lgan adib Qamchibek Kenja "Andijondan Dakkagacha" nomli safarnomasida hayajonini yashira olmay yozadi:

"Hindiston va Pokiston shaharlarida ko'p moziygohlarda, jumladan, Haydaroboddagi mashhur Solarjang, Lohurdagi milliy muzeylarda bo'lgan edik. Lekin Sharq olamining olis bir chetida faqat va faqat boburiylar hayoti, ularning podsholik faoliyatiga oid yagona, maxsus muzeyni ko'ramiz, deb sira o'ylamovdik"¹⁸.

Hindiston va Bangladeshda Bobur va boburiylar saltanati unchalik qadrlanishidan Bobur va vorislarining podsholiklari bu yurtlarda xayrli chuqur iz qoldirganligi ma'lum bo'ladi.

"Boburnoma"ning kotibi Boburning ulug' podshohlarga xos sakkiz shaxsiy fazilatini qayd etgan:

"Va maholdurkim, ul podshohi qobilning yaxshilig'larini aytgan bilan va bitigan bilan tugangay. Lekin mujammal bukim, sekkiz sifati asilaning zotiga muttassil edi: birisi bukim, najhati baland edi; ikkimchisi, immati arjumand edi; uchimchisi, viloyat olmog'; to'rtumchisi, viloyat saqlamog'; beshumchisi, ma'murlug'; oltimchisi, rafohiyatniyati Tengri taolo bandalariga; ettimchisi, cherikni ko'nglini qo'lg'a olmoq;sekkizimchisi, adolat qilmoq".

Matn tabdili: "U qudratli podshohning yaxshiliklarini aytgan bilan va yozgan bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi buki, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi:

¹⁸ Mashrabov Z, Shoqarimov S. Asrlarni b'uylagan Bobur. – T.: E'zuvchi, 1997. – B. 159.

biri bukim – iqbolibaland edi; kkinchisi himmati yuksak edi; uchinchisi – viloyat olmoq; to‘rtinchisi – viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma’murlik; oltinchisi – Alloh bandalariga farovonlik niyati; yettinchisi – lashkar ko‘nglini qo‘lga olmoq; sakkizinchisi adolat qilmoq”.

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Evropa va AQSH tarxshunos tarixchi olimlari diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: “Bobur fe’l-atvoriga ko‘ra sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan”.

Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o‘smirlik yillari haqida roman yozgan “Boburnoma”ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: “Sahovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”¹⁹.

Bobur shoirgina emas, yirik adabiyot nazariyotchisi hamdir. She’rshunoslikda aruz vazni masalasi hamisha asosiy va dolzarb bo‘lgan. she’rga shoh Bobur bu sohaga juda qiziqadi? Gap shundaki, she’riyatda ko‘p vazn qo‘llash hodisasi muayyan ma’noda shu adabiyot nufuzi va saviyasini belgilaydi.

Hatto Husayn Boyqaro devonidagi g‘azallar bir vaznda tizilganini maxsus qayd etar ekan, bu holni Bobur ijobiy hodisa deb qaramagan.

Boburgacha o‘zbek tilida aruz ilmiga doir ikki risola yozilgan. Birinchisi – Shayx Ahmad bin Xudoydod Taroziyning “Funun ul-alog‘a” asari bo‘lib, bundagi to‘rt ilmning biri aruzdir.

Ikkinchisi – Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asaridir. Bu risolada 140 vazn aqida ilmiy ma’lumot berilgan.

¹⁹ Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. – Т.: “Шарқ” Нашриёт-матбаа Акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006. – Б. 48.

Navoiyning “Funun ul-balog‘a” asaridan xabari bo‘lmagan ko‘rinadi. Bobur o‘zbek tilidagi aruzshunoslikning bu manzarasidan yaxshi xabardor bo‘lgani uchun undan qoniqmagani va bu sohaga hissa qo‘shishga shaylangan.

“Boburnoma”ni ko‘chirgan kotib Boburning aruz risolasi nomini “Mufasssal” deb ko‘rsatadi. Darhaqiqat, Bobur bu risolani shunday yozganki, unda asl, furu’ va zihoflar yuzasidan ishlab chiqilgan 537 vazn miqdoriga ahamiyat berilsa, tadqiqotning bejiz “Mufasssal” deb atalmaganiga amin bo‘lamiz. Ushbu ma’lumot kelgusida Boburning aruz risolasi nomini turli nashrlarda va maktab adabiyot darsliklarida “Mufasssal” tarzida e’lon qilinishini taqozo etadi...

Bobur – fiqh olimi. Fiqh – musulmonchilik farz va sunnatlari haqidagi amaliy nizom ilmidir. Boburning nega bu sohaga qiziqqanini uning ismi sharifi ma’no-mazmunidan mushohada qilsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zotan, ism va uning ma’nosi insonning fe’l-atvori yoki umrbod faoliyatining mazmunini belgilaydigan muhrdir.

Biz “Zahiriddin Muhammad” – uning ismi, Bobur adabiy taxallusi deb mulohaza yuritamiz. Aslida esa, Mirzo Olim Mushrifning “Ansob ulotin fi tavorixi xavoqin” (Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixi) nomli tarixiy asari va Boburning quyidagi ruboiysiga qaraganda uchala so‘z ham shoh va shoirimizning ismi sharifidir.

Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin fi tavorixi xavoqin” nomli tarixiy asari ma’lumotlariga qaraganda, Umarshayx mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘liga bu ismni Xoja Ubaydulloh Ahror qo‘ygan. Ism so‘zlarining sharhiga kelsak:

Zahiriddin Muhammad – Muhammad dinining tayanchi, posboni, demakdir. Bobur – babr (sher)sifat, sherdek degan ma’noga molikdir.

Shuning uchun ham Zahiriddin Muhammad Bobur bir umr shariatpano hukmdor bo‘lib yashadi; shariatga amalqildi; shar’iy hukmlar berdi va fiqhga oid “Mubayyin” (bayon etilgan) nomli asar yozdi. Ushbu kitobda muallif farzandlari bilishi zarur bo‘lgan farz asoslarini (imon, namoz, ro‘za, zakot, haj) o‘tash masalalarini she’riy usulda butun mufasssalligi bilan bayon etdi.

Bobur – yangi yozuv kashfiyotchisi. Madaniyat tarixida yozuvlarning ahamiyati katta. Ma’naviy merosni, madaniyat va san’atni keyingi avlodlarga etkazadigan muhim vosita – yozuv (xat)dir. Turkiylar o‘z uzoq tarixlarida ko‘plab yozuvlardan, chunonchi, turk - runiy yozuvidan, arab yozuvidan, uyg‘ur yozuvidan foydalanganlar. Bobur arab yozuvida savod chiqargan va umri bo‘yi shu yozuvda ikki uch tilda matn bitgan, bu yozuvning ifoda imkoniyatlari, o‘zlashtirish usullarini yaxshi bilgan. Shuning uchun u bu yozuvni yanada mukammallashtirish, osonlashtirish, so‘zni har xil o‘qish nuqsonlarini bartaraf etish maqsadida yangi yozuv – “Xatti Boburiy”ni kashf etdi. “Xatti Boburiy” Zahiriddin Muhammad Bobur ixtiro qilgan xat turi hisoblanadi. Ushbu yozuv turi ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelgan. Sharqshunoslardan A. Beverij, S. Azimjonova, Sobir Muhammad, M. Xeraviy, Ali Alparslon, G. Maoniy va boshqalar “Xatti Boburiy” to‘g‘risida fikr bildirib uni ilmiy jihatdan tadqiq etganlar²⁰. “Xatti Boburiy” haqidagi dastlabki malumotlarni “Boburnoma”da uchratamiz. Asarda Bobur “Xatti Boburiy”ni uch marta tilga oladi.

1. 910 hijriy (1504 melodiya)da Qobuldaligida “Xatti Boburiy”ni ixtiro qilganini;

2. 910 hijriy(1506 melodiya)da Mirg‘obda Hirotlik ulamo Qozi Ihtiyor bilan suhbatlashganini;

3. 935 hijriy(1528 melodiya)da Agrada ekanligida o‘g‘illari Humoyun, Kamron, Hindol va boshqa yaqin kishilariga tuhfa bilan birga “Xatti Boburiy”da yozilgan she’r va nomalar yuborganini tilga oladi. Lekin bu qisqa ma’lumotlardan “Xatti Boburiy”ning shakli, yozilish qoidalari va undan ko‘zlangan maqsad nima ekanligini anglab bo‘lmaydi Uning bu jasorati, birinchidan, ma’naviyat va savodxonlikka kuyunchakligidan bo‘lsa, ikkinchidan, o‘qish va yozishni osonlashtirish, qulaylashtirishga intilishi tufayli edi.

Bobur zamonida yozuvni angilash yoki yangi xatni joriy etishga urinish oson emasdi. Chunki arab yozuvi – “Qur’on” yozuvi edi. Shuning uchun Boburiy

²⁰ Султонов Ў. Хатти Бобурий // Moziydan sado. – Т., 2003 3 – 4 (19 – 20). – Б. 90.

xattini amaliyotga joriy qilish niyatida Bobur bu xatda, avvalo, Qur’oni karimdan ikki nusxa tayyorlab, birini Makkaga, ikkinchisini Tehronga jo’natadi.

Boburiy xatti haqidagi ma’lumotlarga Boburning devonida bir marotaba va “Boburnoma”da ko’plab marotaba duch kelamiz.

“Xatti Boburiy” haqida ma’lumot beruvchi yana bir muhim manba bu 1645-yil Muhammad Toxir ibn Qosimning ashtarxoniylardan Balx hokimi Nadir Muhammadxon topshirig’i bilan yozgan “Ajoyib ut-taboqat” asaridir. Muallif bilmagan holda o’z asarida keltirilgan to’qqizta yashirin yozuv ichiga “Xatti Boburiy”ning 28 harfdan iborat alifbosini ham kiritadi, vaholanki “Xatti Boburiy” hech qanday yashirin yozuv emas edi²¹.

Mutaxassislarning fikrlariga qaraganda, Boburiy xattining amaldagi arab yozuvidan farqi (garchand shu yozuv asosida yaratilgan bo’lsada) va afzalliklari imloda so’z aniqligi (har xil o’qilmasligi), yozish va o’qishning qulayligi bilan izohlanadi. Buni “Boburnoma”da keltirilgan quyidagi parcha mazmunidan ham bilib olish mumkinki, Boburiy xatti alifbosi bilan ilk bor tanishgan kishi shu o’rganish jarayonidayoq bir muncha so’zlarni yoza olgan (matn tabdili):

“Murg’obda mirzolar bilan muloqot qilganimda, Qozi Ixtiyor Muhammad Mir Yusuf bilan kelib meni ko’rdilar. Boburiy xattidan so’z chiqdi, mufradotni (harflarini) so’radi, yozib berdim. O’sha bazmdayoq mufradotni o’qib, qoidasiga amal qilib, bir nimalar yozdi”. Matndan ikki narsani: avvalo, Qozi Ixtiyorning o’ta ziyrakligini, so’ngra Boburiy xattining o’qish va yozishga qulayligini bilib olamiz.

Movarounnaxr tarixida o’chmas chuqur iz qoldirgan, Afg’oniston va Hindiston tarixida esa asrlarga tatigulik ulkan burilish yasagan davlat arbobi, buyuk sarkarda, serqirra olim va tengsiz nozik ta’b shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur horijiy tillarda bir necha o’nlab asarlar yaratilgan²². XVIII asrning 3–choragida inglizlar Hindistonni bosib olgandan keyin ular juda ko’plab qimmatbaho asori atiqalar bilan bir qatorda noyob kitoblar va qo’lyozmalarni ham o’z yurtlariga olib ketganlar . Ularning ko’plari hozirda Britaniya muzeyida va

²¹ Султонов Ў. Хатти Бобурий // *Moziydan sado*. – Т.; 2003. 3 – 4 (19 – 20). – Б. 91.

²² Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда, –Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1995. – Б. 3.

Hindiston milliy muzeylarida saqlanib kelinmoqda. Hozirda ana shu manbalar asosida jahonda juda ko‘plab boburshunos olimlar ish olib bormoqdalar, ana shu olimlar qatorida yurtimizda izlanishlar olib borayotgan olimlarimiz ham bor albatta. Zero Zahiriddin Muhammad Bobur O‘zbekiston farzandi o‘zbek halqi uning bosib o‘tgan sharaflari va mashaqqatli umr yo‘lidan g‘urur, avlodlarga qoldirgan ilmiy merosidan bahramand bo‘lib faxr tuyg‘ularini tuyishga to‘la haqli. Shunday ekan ajdodlarning munosib davomchisi sifatida ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy merosini har qancha o‘rgansak, tadqiq etsak shuncha oz.

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub bo‘lgan “Boburnoma” asari ham boy ilmiy merosimizning bir qismini tashkil etadi. Uni o‘rganish tadqiq etish tarixiy voqealardan xulosa chiqarish biz yoshlarga sharaflari burch, sharaflari vazifadir.

1.2. “Boburnoma” asari va uning yaratilish tarixi

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati mavzusidagi” xalqaro konferensiyada shunday degan edi: “Bugun yurtimizda kechagi kunni eslamaydigan, ajdodlarini, bobolarini yodga olmaydigan odamlar yo‘q desam adashmagan bo‘laman. Dunyo tarixida qudratli saltanat yaratgan Sohibqiron Amir Temur bobomiz, o‘z aql zakovati, ulkan ilmiy salohiyati bilan jahon tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz bilan kim faxrlanmaydi deysiz?”²³.

Darhaqiqat bugun biz muqaddas yurtimiz tuprog‘ida yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov

²³ Каримов, И. А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир. —Т.: Ўзбекистон, 2015, — Б. 110.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi farmonga imzo chekdi. Shu munosabat bilan Andijonda kata ishlarga qo'l urildi: ajoyib tashkilotchi, tinib–tinchimas inson Zokirjon Mashrabov tashabbusi bilan, Bobur nomidagi Xalqaro hayriya jam'armasi tuzildi. Xalqaro ilmiy ekspeditsiya a'zolari Bobur izidan yurib, sharq mamlakatlarida bo'lib, hamyurtimiz haqida ko'p ma'lumotlar to'pladi va ular hozirda Andijonda tashkil qilingan muzeyda o'sib kelayotgan yosh avlodga, yurtdoshlarimizga namoyish etib kelinmoqda. Biz Zahiriddin Muhammad Boburning mumtoz shoir sifatidagi shuhratidan voqifmiz. Biz o'zbeklar uchun Bobur boshqa barcha mumtoz shoirlarimiz kabi aziz va muhtaram²⁴.

Biroq Boburga jahoniy shuhrat keltirgan asar uning “Devon”i, “Mubayyin”i yoki “Aruz risolasi” emas, balki “Boburnoma”, yanada aniqrog'i, uning turli tillarga qilingan tarjimalaridir²⁵. XV—XVI asrlarda Xuroson va Movarounnahr, Hindiston va Afg'oniston, Eron va Turkiyada fors tili va adabiyoti nufuzining qay darajada yuksak ekanligini “Boburnoma” kotibi va tarjimoni so'zlari bilan izohlash mumkin: asarning fors tiliga o'girilishi Hindistondan Turkiyagacha bo'lgan juda ulkan hudud xalqlariga, ziyolilariga etib bordi, degan ishonch edi: kotib “Boburnoma”ni nazarda tutib yozmoqda: “Ushbu kitobkim, “Boburiya”dur, Bayramxonni o'g'li Mirzoxong'a buyurdilarkim, turkiydin forsiyga kelturgilkim, turkiy bilmog'on xaloyiqqa oson bo'lgay”.

“Boburnoma”ni yana fors tiliga o'g'irgan Rashid Axtar Nadviy Bayramxonning o'g'li Abdurahimxon asarning ilk forsiy tarjimasi xususida to'xtalib yozadi: “Shundan keyin jahon ahli birinchi marotba buyuk tojdor (Bobur) ning so'z mulkining ham shahanshohi ekanidan xabar topdi”²⁶.

Shoh, adib, shoir, lashkarboshi Boburning “Vaqoe” (Voqealar), keyinchalik “Boburnoma” nomida shuhrat qozongan asari Zahiriddin Muhammad Boburning ongli hayoti va faoliyati muhim qismining kundaliksimon bayonidir.

²⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017. – B. 18.

²⁵ O'sha asar. – B. 18.

²⁶ O'sha asar. – B. 18.

“Boburnoma” avvalo, etuk badiiy asar. Badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea odisalarni butun voqeyligi bilan kitobxon ko‘z oldida gavdalantira olish, so‘z ustida san’atkorona ishlash, uslub baquvvatligi – bu uslubning bir xususiyati fikran saxiyligu ixcham bayon bo‘lsa, ikkinchi xususiyati – o‘zigagina xosligi va, eng muhimi, ta’sirchanlik ustuvorligidir.

Muallif garchand kamtarlik bilan ko‘pincha o‘zini chetroq tortib, “farmon berdim” o‘rniga “farmon berildi” tarzida matnda o‘z daxlini oldinga chiqarishdan tiyilsa, asardagi bosh qahramon – Boburning o‘zi bo‘lib qolaveradi. Farg‘ona, Kobul va Hindistondagi voqea-hodisalar ummonida Zahiriddin Muhammad Boburning o‘ktam shaxsiyati baralla ko‘zga tashlanadi.

Ingliz sharqshunosi Monstyuart Elfinstonning “Boburnoma” va uning bosh qahramoni haqida aytgan quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir:

Bu xotiralarda buyuk turkiy podshoning hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘a va pardalash lardan xoli. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlarini va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Bobur harbiy odamning tashqi ko‘rinishi, kiyimi, tab’i va odatlarini ifoda etadi, mamlakatlarni, ularning iqlimi, tabiati, xo‘jaligi, san’at va hunarmandlik namunalarini tasvirlab beradi. Lekin muallifning yorqin xarakteri asarga eng ko‘p joziba bag‘ishlaydi.

Asardagi voqea hodisalar muayyan ma’noda uning qismat sarguzashtlariga chambarchas tutashib ketgan. Shuning uchun asarni boshdan oxirigacha o‘qigan kitobxon o‘smir Boburni, yigit shahzoda Boburni, oshiq Boburni, umrbod jangovar lashkarboshi Boburni, podshoh va mutafakkir, mehribon ota Boburni, barcha zafaru mag‘lubiyatlari, fazilatlarini nuqsonlari bilan ravshan tasavvur eta oladi. Muallif “Vaqoe” (Boburnoma)ni yozgani qo‘liga qalam olgan kunidan boshlab voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr mulohaza va ma’lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan (matn tabdili): “Bo‘lgan voqealarni rost yozganman. Chunki bu asarda shu narsa lozim topilganki, har so‘zning rosti bitiladi va har ish aynan qanday voqe’ bo‘lgan bo‘lsa, shunday

aytiladi”²⁷. Shu bois Bobur har bir shaxsga baho berganda uning barcha muhim fazilatlari va fe’l-atvoridagi nuqsonlarini aytishga harakat qiladi. Bunda u mustasnoqlikka yo’l qo’ymaydi, hatto otasi bo’lsa ham o’sha ikki zaruriy o’lchovga amal qiladi. Faqat otasiga emas, o’ziga nisbatan ham.

Bobur, nazarimizda, bir necha jihatdan kamolot sohibidir:

birinchidan, o’z qarindosh-urug’larigagina emas, begonalarga ham mehrmuruvvat va hadyalar saxovatidagi oliyhimmatlilik;

ikkinchidan, kim bo’lmasin, do’st yoki dushmanmi, uning shaxsini xolis, to’la-to’kis baholash iqtidori;

uchinchidan, shariatning tolmas bayroqdori, shariatpanohlilik;

har bir ijtimoiy-siyosiy, axloqiy holatga baho va hukmni shar’an berish salohiyati, zinhor bundan chekinmaslik;

to’rtinchidan, jismoniy etuklik (chunonchi, Xaittiyak qishlog’ida qirg’og’i muzlagan chuqur tezoqar ariqda ko’p marotaba cho’mib chiqadi (matn tabdili): “Menga g’uslga ehtiyoj bor edi. Bir ariq suvidakim qirg’oqlari qalin muz to’ngubedi, o’rtasi suvning tezligi sababli muzbog’lamagan edi, bu suvga kirib g’usl qildim. O’n olti qatla suvga cho’mdim. Suvning sovuqligi xiyla ta’sir qildi”):

beshinchidan, kechirimlilikda musulmoni komilga xos eng yuksak daraja sohibi edi (Bobur Hirotga, Husayn Boyqaro ta’ziasiga ketganida pochchasi Mirzoxon Kobul saltanatini egallab oladi. Bobur qaytib kelib, o’z taxtiga ega bo’lib, hech bir jazo chorasini qo’llamay, Mirzoxonni Xurosonga jo’natadi. Bir yil o’tar-o’tmas Mirzoxon qaytib kelib, Boburning ishonchli va e’tiborli kishilari safiga qabul qilinadi);

oltinchidan, har sohada fikr etukligi – mutafakkirlik unga xos edi. Ijtimoiy-siyosiy hodisalar, axloqiy muammolar, hatto adabiyotshunoslik sohasida ham. Mutafakkirlikning ilk belgilaridan biri – yo’l qo’yilgan xatodan tegishli xulosa chiqarib, tajriba hosil qilishdir. Bobur ikkinchi marta Andijonga ega bo’lgach, o’z kishilarining mol-hollarini Jahongir Mirzo tarafdorlaridan qaytarib olish haqidagi

²⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O’qituvchi, 2017, – B.19.

haqli talablariga ko'nib, bu haqda farmon berib, xato qiladi va Andijondan yana mahrum bo'ladi (matn tabdili):

“Jahongir Mirzodek g'anim yonimizda o'tirganda elni bunday hurkitmoqning hech ma'nosi yo'q edi. Mamlakatlarni egallash va yurt saqlashda ba'zi ishlar yuzaki qaraganda ma'qul va asosli ko'rinadi. Biroq har ishning zamnida yuz ming mulohaza vojib va lozimdir. Ushbu bir mulohazasiz hukm qilganimizdan qanchalik g'avg'o va to'polonlar sodir bo'ldi. Axir Andijondan ikkinchi marotaba chiqib ketishimizga ushbu puxta o'ylanmagan hukmimiz sabab bo'ldi”

Ushbu ko'chirmadagi “har ishning zaminida yuz ming mulohaza vojib va lozimdir” jumlasini mutafakkir Boburning yombi fikridir.

“Boburnoma”ning ahamiyati va uning ijodkori fazilatlarini haqida ingliz boburshunosi Leyn Puulning mulohazalari juda qimmatlidir: “Boburning xotiralari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas; bu xotiralarda Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan, nozik va bilimdon kuzatuvchi, odamlarni sinchiklab o'rganadigan, ular haqida xolis va odil fikr yurita oladigan mutaassir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taassurotlari va nozik fikrlari berilgan.

Uning o'z qiyofasini chizishdagi samimiyligi, fazilat va nuqsonlarini ham mardona tasvirlashi, ochiq ko'ngilliligi, haqqoniylik va ajoyib hazilkashlik tuyg'ulari bu go'zal xotiralarning qadri va ahamiyatini yanada oshiradi”²⁸.

“Boburnoma” badiiy asar bo'lgani uchun uning bosh qahramoni Bobur timsoli tahlili, bizningcha, juda muhim hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur, avvalo, mard insondir. Bu xislat ayniqsa Bobur kabi qismatlari murakkab va ko'pqirrali kishilarni tez-tez turli sinovlarga soladi. Chunki mardlik faqat do'stlar bilan emas, balki dushman bilan munosabatlarda yanada qattiqroq sinaladi.

“Boburnoma” dagi juda ko'p voqea-hodisalar Bobur shaxsining ana shu mardona xislati tantanasini qayta-qayta namoyish etadi. Chunonchi, xonlar Bobur bilan birgalikda Andijon va Axsini egallash niyatida harbiy yurish qilganlarida

²⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017. – B. 20.

Axsi qo'rgonbegi Shayx Boyazid Boburni chorlaydi. Bu haqda Bobur tog'asi Sulton Mahmudxon va kichik xon — Olachaxondan bir kishi orqali maslahat so'raydi: "Uning (Shayx Boyazidning) chorlaganini xonlarga ishora qildik. Xonlar debdilarki : "Borsin. Har nimaqilib bo'lsada Shayx Boyazidni tutsin".

Bu makr-u firib bizning odatda usulimiz emas edi. Alalxususkim, orada ahd bor. Bunday ahdni buzish qanday bo'ladi?!".

Vaziyat yanada og'irlashadi. Xonlar Shayboniixon kelishini eshitib, Toshkent tomonga juftakni rostlaydilar. Bobur, shartga muvofiq, Axsida. Tanbalning yirik lashkar bilan kelishi kutilmoqda. Yana "Boburnoma" voqealariga qaytamiz (matn tabdili): "Biz bu holatda taraddudda edik: turmoqqa xiylaishonch yo'q edi. Sababsiz-nesiz Axsini tashlab chiqmoq ham xush yoqmasdi. Bir kuni ertalab Marg'inondan Jahongir mirzo keldi. Ko'rishdim. Ushbu zamon Shayx Boyazid ham iztirob bilan keldi. Esankirab qolgan. Jahongir mirzo va Ibrohimbek dedilarki: "Shayx Boyazidni tutmoq kerak. Arkni qulga olmoq kerak". Darhaqiqat, to'g'ri ishning hisobishu edi. Men dedimki: „Ahd qilgan. Biznega ahdga xilof qilamiz?!".

Ko'rayotirmizki, har qanday og'ir, tahlikali vaziyatda ham Boburning mardligi, ahdiga sodiqligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Mardlik g'animga nisbatan ham ahdva shartga ustuvorlikda bilinganidek, o'ta qiyin jismoniy azoblarni el qatori o'ziga teng ravo ko'rishda ham zuhur etadi.

Bobur mardlikda himmati yuksak davlat arbobi edi. Hirotidan Kobulga borishda qor otning qornidan keladigan yo'llarda o'zi oldinga tushib qor tepib, lashkarga yo'l ochadi. Boshqalar g'orda qor bo'ronidan jon saqlasalar, Bobur qordao'ra qazib, o'sha erda tong ottiradi (matn tabdili): "Bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir shar'iy – bir yarim shar'iydan ortiq ko'chilmas edi. Qor tepar kishi men edim, o'n-o'n besh ichkilar bilan va Qosimbek edi, ikki o'g'li – Tangriberdiva Qanbar Ali bilan, yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu zikr etilganlar yayov yurib, qor tepar edik. Har kishi etti-sakkiz qari ilgari yurib qor tepar edi. Har qadam qo'yganida beligacha, ko'ksigacha bota-bota qor tepar edi.

Shu usulda qor tepib... Havoli Qutiy degan g'orga keldik. Ushbu kun dahshatli bo'ron bilan qor yog'ar edi. Shunchalikki, barchaga o'lim vahimasi

bo‘ldi. G‘or torroq ko‘rindi. Men g‘orning‘ og‘zida kurak olib, qor kurab, o‘zimga bir takya miqdori er yasadim, qorni ko‘ksimgacha qazdim. Hanuz oyog‘im erga tegmasdi. Biroz shamoldan panoh bo‘ldi. O‘sha holatda o‘tirdim. Har necha dedilarki: - G‘orga boring bormadim. Ko‘ngilga kechdikim, barcha el qorda va chopqunda, men issiq uyda va istirohat bilan; unda barcha el tashvish bilan mashaqqatda, men bunda uyqu bilan farog‘atda. Muruvvatdan yiroq va hamjihatlikdan nariishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqatqilib tursa – turayin. Bir forsiy maqol bor: “Do‘stlar bilan o‘lim – to‘ydir degan”.

Bu mulohazalar ulug‘ rahbarga, mard sardorga xosdir, albatta. Shuning uchun ham “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilgan Pavede Kurteyl Boburga quyidagicha haqqoniy baho beradi: “Har qanday sinovgabardosh bera oluvchi, iroda va matonatni mujassamlashtirgan bu zot o‘zida harbiy hiyla va jasoratni uyg‘unlashtira olar, zarur bo‘lganda jazolashga ham, avf etishga ham qodir edi; u iste’dodli harbiy arbob va ishning ko‘zini biladigan, qo‘shinlarni mohirlik bilan boshqara oladigan, ularning ishonchini qozona olgan sarkarda edi...”²⁹

“Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari – ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. “Boburnoma”ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta 1878 va 1909-yillarda uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921- yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma”ning tarjimalari 9-marta nashr etildi. Keyingi yillarda

²⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2017.– B. 21.

“Boburnoma”ning professor V. Takston tomonidan AQSHda (Kembrij shahri, Garvard uni, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal soʻzlik, koʻrsatkich va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995-96) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi.

“Boburnoma” qoʻlyozmalari matnida 1504-1505, 1509-1518, 1520-1524 yillar tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish boʻlgan oʻrinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida maʼlum darajada tiklaganlar. “Boburnoma” 1586-yilda forschaga, undan parchalar 1705-yili Vitsen tomonidan golland tiliga, A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga, Pave de Kurteyl tomonidan toʻla holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. “Boburnoma”ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afgʻoniston (Abdulxay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R . R. Arat va N. I. Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslaridan N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkinlar ham “Boburnoma”dan parchalarni tarjima qilganlar. N. I. Ilminskiy 1857 yilda “Boburnoma”ni Qozonda nashr ettirdi.

“Boburnoma” asarining bir necha marta soddalashtirilib, oʻquvchiga tushunarli tilda nashr qilingan hamda undagi tarixiy voqealar yoritilgan koʻplab asarlar yaratilgan va yaratilmoqda. Jumladan, Porso Shamsiyev, V. Rahmonov³⁰, H. Quadratillayev³¹, T. Fayziyev³² lar bu borada bu sohada tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Bu asarlar Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari tarixini oʻrganishda boy manba boʻlib xizmat qilmoqda.

“Boburnoma” asarida keltirilgan maʼlumotlarni ilmiy nuqtai nazardan oʻrganish masalasi soʻnggi yillarga kelib jiddiy ravishda oʻrtaga qoʻyildi. Asrlar davomida tarix fani va sharqshunoslik erishgan yutuqlar va yuzaga keltirgan xulosalarni ilmiy nuqtai nazaridan qayta koʻrib chiqish va baholashdek juda masʼuliyatli va murakkab muammo hali ham toʻla echilgani yoʻq. Bunday sharoitda har bir muhim ilmiy masala boʻyicha xilma-xil fikrlarning mavjud

³⁰ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Oʻqituvchi, 2017. – B. 39.

³¹ Quadratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009.– B.28.

³² Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т.: Шарқ 1995. – Б. 17.

bo‘lishi tabiiy edi. Bu asar yuzasidan ham juda ko‘p fikr va mulohazalar o‘rtaga tashlangan hamda muhokama qilinib, muayyan echimini topgan. Mazkur bitiruv malakaviy ishida ana shu fikr-mulohazalarning ob’yektiv, nisbatan asosli, nuqtai nazarlaridan foydalanilgan. Islom Karimov asarlarida “Boburnoma” haqida olg‘a surilgan fikr-mulohaza va dasturlar asos qilib olingan.

II BOB. “BOBURNOMA” ASARIDA TARIXIY VA ETNOGRAFIK MA’LUMOTLAR TAHLILI

2.1. “Boburnoma” – tarixiy asar

“Boburnoma” – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lib, bu asar taxminan 1518-1530-yillarda eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan. Asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoe” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. “Boburnoma”da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

“Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistondagi hukmdorlik davriga bo‘linadi.

Birinchi qismda Boburning otasi – temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi, ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi, Samarqand uchun Shayboniylarga qarshi olib borgan jangu jadallarining behuda ketishi, va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan.

Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u erda 1508 yilda mustaqil davlat tuzgani, eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani, lekin shayboniylardan Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton qo‘shinlaridan engilib, Kobulga

qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan.

Uchinchi qismda esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib, Shimoliy Hindistonni bosib olgani va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma‘lumotlardan iborat.

“Boburnoma”da keltirilgan barcha ma‘lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shimoliy Afg‘onistonning o‘n beshinchi asrning 80 – 90 -yillari va o‘n oltinchi asrning 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda o‘zaro dushmanlik qilgan temuriylar – Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati xususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta‘limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma‘danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma‘lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari, qo‘rg‘onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko‘plab harbiy-ma‘muriy istilohlar (tuman, ulus, ko‘kaltosh, eshikog‘a, axtachi, tarxon, shig‘ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug‘chi, miroxur, rikobdor, dorug‘a, murchil, manjaniq, o‘ron va boshqalar) ham uchraydi.

Xususan XV–XVII asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo‘yliq (qo‘yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrda turk-mo‘g‘ul qabilalarining urf-odatlarini, harbiy mahoratlari haqidagi ma‘lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g‘oyatda qimmatli bo‘lib, ular o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir.

“Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod kabi ko‘plab san‘atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi.

Jumladan, Alisher Navoiy haqida shunday deyiladi: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she‘r aytibturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”.

“Boburnoma” asari Zahiriddin Muhammad Boburning hijriy 899, milodiy 1494-yilda Farg‘ona hokimi bo‘lgani bayoni bilan boshlanadi. Shundan so‘ng otasi Umarshayh Mirzo haqida ma‘lumot beriladi. Asarda keltilishicha, uning shajarasi Umarshayh Mirzo ibn Abu Said ibn Sutton Muhammad ibn Mironshoh deya keltiriladi. Mironshoh mirzo Amir Temurning uchinchi o‘g‘li edi. Umarshayh mirzo 1455–1494-yillarda yashab o‘tgan. Umarshayh Mirzoga otasi Abu Said dastlab Kobulni suyurg‘ol qilib bergan edi. Lekin biroz fursatdan keyin unga Farg‘ona hokimligi topshiriladi. Buning sababini Bobur Amir Temurning o‘g‘li Umarshayh Mirzoga Farg‘ona hokimligini berganligi va Abu Said ham huddi shu ishni qilganligi bilan izohlaydi. Akasi Sulton Ahmad davrida unga Toshkent va Sayram ham qo‘shib beriladi. Keyinchalik uning qo‘lida Farg‘ona, Xo‘jand, O‘ratepa hududlari qoladi. Umarshayh Mirzoning rafiqasi Qutlug‘ Nigorxonim bo‘lib, u chig‘atoy naslidan bo‘lgan Yunusxonning qizi edi. Toshkent Umarshayh mirzo tasarrufida bo‘lib turgan kezlarda uni qaynotasi Yunusxonga bergan edi. Yunusxonning vafotidan so‘ng esa Toshkentni uning o‘g‘li Mahmudxon boshqardi. To 1502-yilgacha Toshkent va Shohruxiya shaharlari chig‘atoy xonlarining tasarrufida bo‘ldi³³. Umarshayx mirzoning yomon muomalasidan Sulton Ahmad va Mahmudxon ittifoq tuzib 1494-yilda biri shimol va janub tomondan Farg‘onaga bostrib kiradilar. Shunday vaziyatda Umarshayh Mirzo Axxi qo‘rg‘onidagi jordan qulab vafot etadi. Hokimiyat 12 yoshli Bobur qo‘liga o‘tadi. Sulton Ahmad mirzo O‘ratepa, Xo‘jand va Marg‘ilon shahrlarini olib, Quvaga kelib tushadi. Andijonga o‘tish uchun Quvaning botqoq suvidan o‘tish kerak bo‘lgan. Ko‘prikdan o‘tish paytida ko‘prik sinib Sulton Ahmad qo‘shinlarining bir qanchasi halok bo‘ladi. Bu askarlar orasida vahima uyg‘otadi. Bundan tashqari otlar orasida tarqalgan o‘lat kasali va Andijon xalqining birdamligi kabi omillar tufayli sulh tuzib orqaga qaytishga majbur bo‘ladilar. Mahmudxon esa Axxini qamal qiladi. Bu davrda shaharda Boburning ukasi Jahongir Mirzo boshchiligidagi

³³ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2017. – B. 46.

beklar shaharni mudofaa qiladilar. Mahmudxon natijaga erishmay sog'ligi yomonlashib orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Uchinchi tomondan Qoshg'ar va Xo'tan hokimi Abu Bakr dug'lat Qoshg'ariy O'zgandga yurish qilgan edi. Uni jazolash uchun Hoji Qozi ismli sarkarda yuborilib, Abu Bakr mag'lub etiladi.

Keyingi o'rinda "Boburnoma"da 1494–1495-yillardagi voqealar haqida bayon qilinadi. Samarqand hukmdori sulton Ahmad Mirzo Andijondan orqaga qaytib O'ratepa tumanidagi Oqsuvga etganida qattiq isitma bo'lib to'satdn 44 yoshida vafot etadi. Samarqand tahtiga uning beklarining chaqirig'i bilan sulton Mahmud Mirzo tahtga chiqdi. Taxtni osonlik bilan egallagan sulton Mahmud mamalakatda beboshliklarni avjiga chiqaradi. Akasi sulton Ahmad davrida Samarqandda istiqomat qilayotgan Xoja Axror va uning qaramog'idagi kishilar va ayrim faqir va kambag'allar xiroj va boshqa ba'zi soliqlardan ozod etilgan edi. Mahmud Mirzo esa ularni barchasini qayta soliqqa tortdi. Mahmud Mirzo mamlakatda besh-olti oygina hukmronlik qilib, og'ir kasallikka chalinib 43 yoshida vafot etadi.

Sulton Mahmud Mirzoning vafotidan so'ng Qunduz hukmdori Xisravshoh mamlakatda davlat mulkini talon-taroj qila boshladi. Bundan g'azablangan Samarqand xalqi g'alayon qilishga o'tlanadi. Xisravshoh Hisor tomonga qochadi. Mahmud Mirzo tirikligida Hisor viloyatini kata o'g'li Mas'ud Mirzoga ikkinchi o'g'li Boysung'ur mirzoga esa Buxoroni bergan edi. Xisravshoh ketganidan so'ng Hisor va Samarqand beklari o'zaro kelishib Boysung'urni tahtga chiqarishga kelishishadi. Shunday vaziyatda Toshkent hokimi Mahmudxon Samarqand tomonga lashkar tortadi. Bu urushda Bobur ham ishtirok etadi. Bu yurishlarda Isfara, Xo'jand, O'ratepa tumanlari egallanadi.

Shunday vaziyatda 1495-yilda Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro Hisor viloyatiga qarab hujum qiladi va Termizga yaqinlashadi. Hisorni ikki oy qamal qilib egallay olmaydi. Bu davrda Qunduz viloyatida hokimlik qilayotgan Xisravshoh ustiga ikki marta yurish qilib orqaga qaytgan sulton Husayn Balh shahriga kelganda bu viloyat hokimligini kata o'g'li Badiuzzamonga beradi. Asli bundan avval uning viloyati bo'lgan Astrabodni esa kichik o'g'li Muzaffar

Husaynga topshiriladi. Aynan mana shu voqea keyinchalik Xurosonda sodir bo'lgan o'zaro urush va fitnalarning sababi bo'lgan edi³⁴.

Samarqand tahtiga Boysung'ur Mirzo chiqqanidan so'ng 1495-1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqsa edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axbi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notin bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror kiladi. Ammo Xo'jandga etganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o'tganin eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O'ziga sodiq 200-300 kishilar bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga – Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, 2 yildan so'ng 1498-yilning iyunda uni qayta qo'lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida "Xo'jand suvining Axbi tarafi viloyatlarini..." qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi. Temuriylarning o'zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499-yilda Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o'lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko'p o'tmay, katta kuch bilan Movarounnahrqa qaytgan Shayboniyxon shu yilning o'zida Buxoro va Qorako'lni egallaydi, Sulton Ali Mirzo kalabinlik bilan Samarqandni

³⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017. – B. 69.

1500-yilda Shayboniyxonga jangsiz topshiradi. Birok, shahar aholisi va zodagonlarining ma'lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg'ona hokimi Boburga maktub yo'llab, Samarqandni ishg'ol qilishga da'vat etganlar. Bobur 1500-yilning kech kuzida o'zining 240 kishilik qo'shini bilan Samarqandga etib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar ximoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G'uzor shaharlarida Boburning hokimligi e'tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1500-yilning aprelida Zarafshon daryosi bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Bobur qo'shinlari engiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to'rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501-yilning ikkinchi yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo'l oladi. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsada, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504 - yillarda Bobur Farg'ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to'xtovsiz janglari va og'ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo'llamadi va u 1504 -yil iyun'da Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ladi. Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u erdagi ichki nizolardan foydalanib G'azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Kobulga, umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurti

kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. "Bog'i Shaxroro", "Bog'i Jahonoro", "O'rtabog'", "Bog'i vafo'" va "Bog'i Bobur" kabi oromgoxlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta'mirlatdi yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu erda tug'iladi. 1506-yilning bahorida vafot etgan Qutlug' Nigorxonim Mirzo Ulug'bek shu erda bunyod ettirgan "Bog'i Navro'ziy"ga dafn etiladi. Bobur Afg'onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, uning manfaatlari yo'lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg'onistondagi amaliy faoliyatiga ko'ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro' orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e'tiborli o'ringa ko'tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko'rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig'iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko'rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo'yicha Hirotga o'tlanadi. Husayn Boyqaroning to'satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o'tkazadi³⁵.

Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniynon qo'shinlariga to'siq qo'yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag'lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo'ldan chiqaradilar. 1507-yilning boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinish muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarin kuzatib boradi, o'z qo'shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniynon Xurosonning yirik markazlarini qo'lga kiritgach, eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi Ammo, eron shohi Ismoil Safaviy bilan bo'lib o'tgan 1510-yildagi qattiq to'qnashuvda engiladi, o'zi ham Marvda halok bo'ladi. Shoh Ismoil Xuroson va

³⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. 2005. 428 - бет

Movarounnahr qo'shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast etkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511-yilning bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktabr boshida esa Samarqandni yana qo'lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra'yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug'diradi. 1512-yilning 28-aprelida Ko'li Malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan engilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512-yilning kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o'tib, avval Huzar (G'uzor) qal'asini oladi, so'ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so'ng taslim bo'ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi 1512-yil 24-noyabrda G'ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo'ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e'tiborini Hindistonga qaratadi. 1519-yilning bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526-yilning aprelida Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli Boburiylar sulolasiga asos soladi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg'onistonda bo'lganidek, ko'plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o'zaro ichki nizo va qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tarixiy-adabiy manba sifatida shunisi bilan ham muhimki, asarda ko'plab tarixiy shaxslar,

adabiyot va san'at, din ahli, shoh va shahzodalar, bek, amir-u umarolar haqida ma'lumot beriladi.

“Boburnoma”da hammasi bo‘lib, 1540 nafar kishining ism-sharifi tilga olingan. Shundan 357 tasini movarounnahrlik tarixiy shaxslar tashkil qiladi. Qolgan qismini esa turli davrda va mamlakatlarda yashagan shaxslar tashkil etadi. Movarounnahrlik 357 nafar turli toifa kishilaridan iborat tarixiy shaxslar: 5 nafari amir va amirzodalar, 20 nafari shoh va shahzodalar, 42 nafari malika va shoh qizlari, 52 nafari umarolar, qo‘shin boshliqlari va beklar, 21 nafari din va tasavvuf egalari, 30 nafari ilm-fan va adabiyot ahllari, 187 nafari turli xos kishilar – askar, dehqon, san'at ahli, hunarmand, qul va yog‘iylarning nomlari qayd etilib, sharhlab berilgan³⁶.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida movarounnahrlik (Boburning o‘zini ham qo‘shganda) 25 nafar amir va amirzodalar nomi, ular haqida ma'lumotlar keltirganini kuzatamiz. Movarounnahrlik hukmdorlar to‘g‘risidagi ma'lumotni muallif, dastavval, otasi Umarshayx Mirzo haqida beradi. Shu o‘rinda, Boburning hukmdorlar hayoti va faoliyatini tasvirlashda o‘ziga xos usul ishlab chiqqanini aytish lozim bo‘ladi. Birinchidan, u hukmdorlarning nomini tilga olib, “Valodat va nasabi”, “Shakl va shamoyili”, “Axloq va atvori”, “Viloyati”, “Avlodi”, “Xavotun va sarori”, “Umarosi” kabi sarlavhalar ostida ular to‘g‘risidagi ma'lumotlarni tartib bilan bayon qiladi. Bobur asarida Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Boysung‘ur Mirzo hamda Sulton Husayn Mirzo haqidagi ma'lumotlarni bayon qilishda yuqorida sanab o‘tilgan tartibga asoslanadi.

Muallif Umarshayx Mirzoning “Valodat va nasabi” to‘g‘risida ma'lumot berar ekan, quyidagilarni yozadi: “... Sekkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid Mirzoning to‘rtunchi o‘g‘li edi. Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzodin kichik edi. Sulton Abusaid Mirzo

³⁶Abdullaeva M. “Boburnoma”da tarixiy shaxslar talqini. www.Referat.uz

Sulton Muhammad Mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Mirzoning o'g'li edi. Mironshoh Mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi”³⁷.

Shuni alohida qayd etish lozimki, qadimdan musulmon xalqlarida etti ajdodni, ya'ni “haft pusht”ni aniq bilish keyingi avlodlarga urf bo'lgan. Bobur shu an'anaga muvofiq, asarida bir qator tarixiy shaxslar haqida to'xtalib o'tar ekan, ularning o'tgan etti ajdodi, nasabi to'g'risida aniq ma'lumot berishga harakat qiladi.

Umarshayx Mirzoning “xavotun va sarori” bayonida o'z onasi Qutlug' Nigorxonim haqida fikr yuritar ekan, bobosi Yunusxonning nasabiga ham batafsil to'xtaladi. “Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslindindur”, deb uning etti pushtini birma-bir sanab o'tadi, ya'ni “Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali o'g'lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojag'on ibn Tug'luq Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Do'vaxon Baroqxon ibn Esun Tuva ibn Mo'tugon ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon”. Boburning ajdodlarini bu tariqa bayon qilish uslubining ta'siri Abulg'ozining “Shajarai turk” asarida ham ko'rinadi.

Muallif Sulton Ahmad Mirzo haqida yozar ekan, uning xarakteridagi ayrim juz'iy nuqsonlarni ham bayon etadi. Chunonchi: “Hech nimarsa o'qug'on emas edi, omi edi. Bovujudkim shaharda ulg'ayib edi, turk va sodda edi. Ta'bdin bahrasi yo'q edi”, yoki “... gohikim ichkulukka tushar erdi, yigirma-o'ttiz kun payo-pay ichar edi” kabi jummalarda shoh Sulton Ahmad Mirzoning ilm-ma'rifatdan bebahra, she'riyatga ixlosi, havasi yo'q kishi ekanini, ba'zida ichkilikka ruju qo'yishini ro'y-rost tanqidiy ifodalashga erishadi.

Muallif har bir hukmdor haqidagi mulohazalarini berishda voqealarga ochiq yondashadi. Ayniqsa, uning hukmdorlar “Masofa va urushlari” zikrida bayon qilgan voqealarni yozishda yuksak xotira egasi va o'tkir tarixchi ekanini bilib olish qiyin emas. chunonchi, Sulton Husayn Mirzoning masofa va urushlari to'g'risida gapirib, “qozoqliqlarida bir martaba Gurgon suyini o'zdurub kechib, bir pora o'zbakni yaxshi bosti. Yana bir qatla Sulton Abusaid Mirzo Muhammad Ali baxshi boshliq uch ming kishini ilg'or yiborib edi. Sulton Husayn Mirzo oltmish yigit bila

³⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017. – B. 47.

kelib, tegib zarbi rost bosti. Sulton Husayn Mirzoning bir yaxshi ishi va namoyon ishi budur”, deb uning o‘nlab kurashlari haqida ma’lumot beradi va o‘zining “Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay” fikrini isbotlashga erishadi.

Demak, Husayn Boyqaro mard, kuchli va baquvvat “qilichboz qo‘llar sohibi”. “Ta’bi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi “Husayniy” edi. Ba’zi baytlari yomon emastur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur”, degan ta’rifdan keyin o‘quvchi ko‘z o‘ngida Sulton Husayn adabiyotga ixlosmand, tadbirli va xushtab davlat arbobi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq Boburning keyingi fikrlarida o‘quvchi Sulton Husaynning yana bir o‘ziga xos xususiyatini anglaydi. Bu –“Bovujudkim ham yosh, ham saltanat bila ulug‘ podshoh edi, kichiklardek qo‘chqor saxlab, kabo‘tar saxlab, kabo‘tar o‘ynar edi, tovuq ham urushqa solur edi”. Ana shu qisqa tasvir orqali Bobur har bir kishiga xos xarakterning turli murakkab holatlarga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib bera olgan.

Bobur nima haqda va kim haqda yozmasin, g‘oyat samimiyydir. O‘zining quvonchini ham, g‘amini ham hech kimdan yashirmay, ro‘y-rost aytadi. Ushbu sabab ham “Boburnoma” asari qadrini yana bir karra oshirgan deyish mumkin.

Unda XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarimlarigacha Xuroson, Movarounnahr, Hindistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o‘z aksini topganidek, asarda yuzlab tarixiy shaxslarning nomlari bor. Ularning ayrimlari haqidagi ma’lumotlar har qanday tarixiy asarda topilmaydigan noyoblighi, muhimligi bilan olimlarni ham lol qoldiradi.

Shu ma’noda “Boburnoma”ni ajoyib voqeiy tarixiy roman deyish mumkin. Chunki jang-jadallar tarixiy asarlardagidek hisobot-axborot tarzida emas, balkibadiiy asarga xos yuz xil qiyofali, fe’latvorli kishilar faoliyati tasviri orqali ko‘rsatiladi.

Tarixiy shaxslarning yakka shaxsiyat, davlat boshlig‘i, lashkarboshi sifatidagi faoliyatlarining ko‘pqirrali talqini va tahlili bu asar uchun xosligini Husayn Boyqaro shaxsi, tarixiy qismati, shaxsiy va oilaviy fojiasi sabablari xususidagi ma’lumotlar bilan isbotlashga harakat qilamiz.

Bobur Husayn Boyqaro saltanati va nufuzini Amur Temur bilan qiyoslab ulugʻlaydi, uni chin yurakdan temuriylarning eng ulugʻ podshohlari safida qadrlaydi.

Boburning fikricha, Husayn Boyqaro va farzandlari bir yoqadan bosh chiqarib, Bobur va unga oʻxshaganlarni oʻz ittifoqchiligiga chorlab, shayboniylarga qarshi kurashilsa, uni yengib boʻlardi. Lekin Husayn Boyqaro xuddi Muhammad Xorazmshoh yoʻl qoʻygan xatoni takrorlaydi: oʻz farzandlari, Bobur, Xisravshoh, Zunnun Argʻun va Shohbeklarning har biriga oʻz qalʼasini mustahkamlab, gʻanimga nisbatan mudofaani tashkil qilish yuzasidan maktublar yoʻllaydi; bu xato taktikasini bir vaqtlari qoʻl kelgan oʻz tarixiy tajribasi bilan asoslashga urinadi.

“Vaqoe”da Bobur bu haqda yozadi (matn tabdili): Ushbu fursatlar Sulton Husayn Mirzodan Badiuzzamon mirzoga, menga, Xisravshohga va Zunnunga bir mazmunda uzundan uzoq maktublar keldi...

Mazmuni bu ediki: “Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Ulugʻbek Mirzo – uch ogʻa-ini ittifoq qilib yurish qilgʻanlarida men Murgʻob yoqasini berkitdim. Mirzolar yaqin etib hech ish qila olmay qaytib ketdilar. Hozir ham agar oʻzebak (shayboniylar) yurishqilsa, men Murgʻob yoqasini berkitay, Badiuzzamon Mirzo Balx, Shaburgon va Andxud qoʻrgʻonlariga saqlay oladigan kishilarini qoʻyib, oʻzi Gurzavon va Darayi Zangda u togʻliklarni berkitsin”.

Mening bu yerlarga kelganim xabari unga etgan edi. Menga ham bitib ediki: “Sen Kohmard va Ajarda u togʻ etaklarini berkitib, Xisravshoh Hisor va Qunduz qoʻrgʻonlarida ishonchli kishilarni qoʻyib, oʻzi bilan inisi Vali Badaxshon va Xatlon togʻlarini bekitsinlar. Oʻzbak hech ish qila olmay qaytgusidir”, deb.

Sulton Husayn Mirzoning bu xatlari noumidlikka sababchi boʻldi. Ne uchunki, Temurbekning yurtida hozirgi paytda undan ulugʻroq podshoh ham yosh, ham viloyat va ham lashkar bilan yoʻq edi...

...Sulton Husayn Mirzodek Temurbek oʻrniga oʻtirgan ulugʻ podshoh gʻanimning ustiga yurishni demay, er berkitmoqni desa, el va ulusga ne umidvorlik qolgay?!”.

Endi Boburning Husayn Boyqaroning zamoni va obodonchilikdagi faoliyati xususidagi mulohazalari – hayratlarining guvohi bo‘laylik (matn tabdili): “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab bir zamon edi: fazl ahli va mislsiz san’atkorlardan Xuroson, xususan, Hirot shahri to‘la edi. Har kishiningki, birishga mashg‘ullig‘i bor edi, himmati va maqsadi shu ediki, u ishni amolga etkazgay”.

“Yana Hirotkim, erning odamlar yashaydigan qismida bunday shahar yo‘qdir; Sulton Husayn Mirzoning zamonida Mirzoning sa’y-g‘ayrati va takallufidan Hirotning zeb-ziynati birga o‘n, balki yigirma baravar obod bo‘lib edi”.

Bobur Husayn Mirzoning shaxsiy fazilatlaridan yana bir nechasini namoyish qiladi: “Shijoatli va mardona kishi edi. Ko‘p marotaba g‘animga o‘zi qilich solgan. Temurbek naslidan hechkim ma’lum emaski, Husayn Mirzodek qilich chopgan bo‘lsin. Nazmiy iste’dodi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy yozardi. Taxallusi Husayniy edi. Ba’zi baytlari yomon emas. Lekin Mirzoning devoni batamom bir vazndadir”.

Xuddi ana shunday teran tahlil, muhim hayotiy nuqtalarni, ijod va shaxsni ko‘pqirrali tahlil etishni biz Alisher Navoiyga nisbatan ham kuzatamiz.

Alisher Navoiy haqidagi “Boburnoma” ma’lumotlari shu darajada o‘ta muhim, keng qamrovli va mufassalki, o‘rta asrlarda Alisher Navoiy haqida yozilgan ma’lumotlar, bag‘ishlovlar va hatto ulug‘ dahoga maxsus bag‘ishlangan Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari ham ilmiy va tarjimai holga doir ma’lumotlarning boyligi, muhimligi, aniqligi va jozibaliligi jihatidan “Boburnoma”dagi bitiklar bilan bellasha olmaydi, desak mubolag‘a bo‘lmas.

Alisher Navoiy va Boburning shaxsiy munosabatlari 1500- yillar Boburning Samarqandni ikkinchi marotaba qo‘lga kiritganidan boshlanadi.

Boburning Alisher Navoiyga bergan bahosi: mislsiz turkiygo‘y shoir, jahonkam ko‘rgan oliyhimmat murabbiy vahomiy. Ana shu fikrda Bobur umrbod sobit (matn tabdili): “Alisherbek mislsiz kishi edi. Turkiy til bilan she’r yoza boshlaganlaridan beri hech kim unchalik ko‘p va ho‘p yozgan emas”;

“Fozillar va hunarmandlarga Alisherbekcha murabbiy va homiy inson bo‘lgani yoki o‘tgani olamda ma’lum emas”.

Bobur har bir tarixiy shaxs va uning faoliyatini puxta tahlil etadi. Uning ma'lumotlarida shaxsning kimligi, fe'l-atvori, kishilarga va oilaga munosabati, qiliqlari, el orasidagi obro' e'tibori, faoliyati, uning ijobiy, salbiy yoki mulohazatalab xususiyatlarigacha faqat eng muhim tomonlari saralab talqin etiladi. Ayni ana shu tahlil usulida Bobur Navoiyning tarjimai holi, shaxsi, faoliyati va asarlariga yondashadi.

“Boburnoma”da Husayn Boyqaro beklari birma-bir sanalayotganida navbat Alisher Navoiyga keladi. Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas, balki suhbatdoshi edi. Yoshligida Husayn Mirzo bilan maktabdosh ekandirlar. Xislatlari kup ekan. Bilmadim, nima sababdandir, Sulton Abusaid Mirzo uni Hirotdan surgun qildi. U Samarqandga bordi. Necha yilki Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy va homiysi edi. Alisherbekning mizoji noziklik bilan mashhurdir. El uning noziktabiatliligini davlatining g'ururidan deb tasavvur qilardi. Unday emas ekan. Bu sifat unda tug'ma ekan. Samarqandda ekanida ham o'shanday nozikmizoj ekan.

“Boburnoma”da ulug' shoirning davlat amaldori sifatida Husayn Boyqaroga sadoqati va saxovati, uning birbayti mazmuni halokatiga sabab bulgan xastalikka ishora ekanligi o'ta ixcham talqin etiladi (matn tabdili): “Avvallari muhrdor edi. Faoliyatining o'rtalarida bek bo'lib, bir qancha vaqt Astrobodda hokimlik qildi. Oxiri amaldorlikni tark etdi. Mirzodan hech narsa olmas, balki har yili unga yirik-yirik mablaglar tortiq qilar edi. Sulton Husayn Mirzo Astrobod lashkaridan qaytganda istiqboliga chiqdi. Mirzo bilan ko'rishga turib, holati o'zgardi, tik turolmadi, ko'tarib olib ketdilar. Tabiblar unga aslo tashxis qo'ya olmadilar. Ertasigayoq Tangri rahmatig'a bordi. Bir bayti o'z holati ifodasiga muvofiq kelgan.

“Boburnoma” undagi tarixiy shaxslarning ko'pligi, sulolalar, saltanatlar taraqqiysi va tanazzulini yorqin namoyon etuvchi badiiy-ilmiy hujjat, urushlar tarixi, jang qurol-yaroglari, jangga saf tortish va jang usullari, davlatlararo va shohlararo munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manbadir.

Ayniqsa, janglarning bu asardagi talqini kishini hayratga soladi. Jang uchun sabab va bahonalar, janggoh tanlash va joy jugrofiyasiga ko'ra, quyosh nuri tushishiga ko'ra harbiy saflarga joy tanlash, qo'shin qismlarini harbiy amaliyotda muvofiqlashtirish usullari, harbiy asbob-uskuna, jangchi va ot-ulovlar uchun sovutu zirhlarning ahamiyati, shaharga kirish va qal'ani zabt etish chora-tadbirlari shunchalik mukammal berilganki, go'yo bu asar shohlarga o'ziga xos qo'llanma vazifasini ham bajara olardi. "Boburnoma" bizga Urta Osiyo va atrofdagi davlatlarda ishlatilgan harbiy qurollar, mudofaa vositalari, qal'aga chiqish asbob-uskunalarining o'ziga xos qomusi sifatida ham tarixiy-ma'rifiy ahamiyatga molikdir.

"Boburnoma" Amir Temur, Shohrux Mirzo, Abusaid Mirzo, Ulugbek, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Xoja Ubaydulloh Ahror, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Sulton Mahmudxon, Ahmad Tanbal, Xisravshoh, Zunnunargun, Ismoil Safaviy, Shoh Tahmosp, Abulmakorim, Xoja Mavlonoyi Qozi, Badiuzzamon Mirzo, Abdullatif Mirzo, Raana Sangaa singari shoh va shahzodalar, amir va beklar, pirmurshidlar haqida muhim tarixiy ma'lumotlarni o'zida aks ettirgani bilan bag'oyat qimmatlidir. "Boburnoma"da keltirilgan barcha ma'lumotlar, xususan Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag'oniyon va Shimoliy Afg'onistonning XV asrning 80-90-yillari va XVI asrning 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o'zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu asarida ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'danshunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va boshqa soxalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o'zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O'sha davrdagi qo'shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog' turlari, qo'rg'onbuzar qurilmalar haqida batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

“Boburnoma” o‘zidan avvalgi va o‘zidan keyingi asarlardan bir qator farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Muallif asarda tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda, voqea sababchilari va ishtirokchilari bo‘lgan xalq, urug‘, qabila, elatlarning kelib chiqishi, yashash tarzi, urf odatlari va qarashlarini imkon qadar o‘zi ko‘rgan ma’lumotlar asosida yoritib beradi.

2.2. “Boburnoma” etnografik manba sifatida

Ulug‘ yurtdoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur jang-u jadallardan tashqari umr bo‘yi ilm va ijod, kitobat, madaniyat, sohasidda bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullangan. U Andijonda hukmronlik qilishni boshlagan chog‘laridayoq odamlar tashvishi millat qayg‘usi bilan yashaydigan hukmdor ekanligini isbotlagan edi.

“Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlardan bilish mumkinki Bobur hukmronlik qilgan barcha joylarda yerli xalqning yashash tarzi urf-odatlarini kundalik hayoti haqida mufassal ma’lumotlar olishga intilgan va bu ma’lumotlarni imkon qadar asarda aks ettirishga xarakat qilgan.

“Boburnoma” faqat tarixiy asar emas, unda o‘sha davrdagi bir qator fanlar (jo‘g‘rofiya, naboot, hayvonot, etnografiya, harbiy usul va boshqa soxalar)ning ilmiy yutuqlari ham o‘z ifodasini topgan³⁸.

Endi eng asosiy masala “Boburnoma” etnografiyasi masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak. “Boburnoma” o‘zidan avvalgi va o‘zidan keyingi asarlardan bir qator farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Muallif asarda tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda, voqea sababchilari va ishtirokchilari bo‘lgan xalq, urug‘, qabila, elatlarning kelib chiqishi, yashash tarzi, urf odatlari va qarashlarini imkon qadar o‘zi ko‘rgan ma’lumotlar asosida yoritib beradi.

³⁸ Заҳириддин Муҳаммад Бобур Энциклопедияси. –Т.: «Sharq» Nashriyat – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014. – B.158.

“Boburnoma”da XIV–XVI asrlarga oid ko‘plab etnografik ma’lumotlar berilgan. Asrning bu xususiyati, barcha yirik tarixchi sharqshunoslar hamda Markaziy Osiyo etnografiyasi tarixi bo‘yicha mutaxasislari tomonidan qayd etilgan. Asardagi etnografik ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda qay darajadadir istifoda qilingan. Masalan, Afg‘on qabilalari va ularning joylashuvi haqida dastlabki, batafsil va ishonchli ma’lumotlar Boburning “Vaqoyi”sida keltirilgan bu ma’lumotlar asosan uning shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan va yuqori darajada aniqligi bilan ajralib turadi, bunday e’tirofga qaramay “Boburnoma”dagi etnografik ma’lumotlar hali tizimli ravishda yetarlicha o‘rganilmagan unda qo‘llanilgan etnografik tushunchalar va atamalar aniqlashtirilmagan. Masalan, “Boburnoma”dagi ba’zi bir etnografik tushunchalarni Bobur davridagi Markaziy Osiyoga ham, Hindistonga ham tadbiq etilishi qiyin³⁹. Ishda fikr yuritish va tadqiqotda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, etnik guruhlarining yiriklashib borishi tartibida:

Etnik guruhlarining nomlanishi: honadon (honavoda), qabila, urug‘;

Etnik guruhlarining ko‘lami aniq bo‘lmagan hollarda: qavm;

Ma’lum hududda yashovchi aholiga nisbatan: aholi, el, xalq, ulus kabi atamalar ishlatilganini alohida eslatib o‘tish lozim. “Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnaxr (1594–1504), Afg‘oniston (1504–1524) va Hindiston (1524–1530) yillardagi hukmronlik davrlariga bo‘linganini e’tiborga olsak, asardagi etnografik ma’lumotlar taxlillarini aynan yuqorida keltirilgan xronologik ketma – ketlikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi qismda Boburning Movarounnahrdagi Podsholigi bilan bog‘liq voqealar ona zamin tabiati va uning nematlari, otasi Umarshayhning nasl – nasabi, oilaviy hayoti yurish turishlari, saroydagi mansabdor tarixiy shaxslar ularning o‘rni va faoliyati, xususan, ilm-fan, san’at va adabiyot namoyondalari qimmatli ma’lumotlar bayon qilinadi.

³⁹ Захириддин Мухаммад Бобур Энциклопедияси. Т.: «Sharq» Нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б. 170.

“Boburnoma”ning Movarounnahr davri tavsifida, turli toifadagi, tabaqadagi kishilarning hayoti, shahar va qishloqlarning manzarasi, aholisi va ularning etnogenzi, tili va urf odatlari hayotiy va sodda qilib tasvirlanadiki, natijada o‘quvchi Boburning donishmandligiga qoyil qoladi⁴⁰.

“Boburnoma” ning birinchi qismida Bobur Farg‘ona viloyati va uning yetti shaharchasi va uning poytahti bo‘lgan Andijon haqidagi ma’lumotlarni keltiradi. Ko‘p hollarda asarning bu qismi “Farg‘ona qismi” tarzida qo‘llanganini ko‘ramiz. shu hududlarni ta’riflab o‘tish chog‘ida muallif bir qator etnografik ma’lumotlarni ham keltirib o‘tadi:

“Eli turkdir (o‘zbeklardir). Shahar aholisi va bozorga keluvchilardan turkiyni bilmaydigan kishi yo‘q. Elining tili adabiy tilga muvofiq” Ushbu qisqa jumlar orqali Bobur o‘sha davrda Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lgan Andijon shahrining aholisi o‘zbeklardan iborat ekanligini, so‘zlashuv tili turkiy (o‘zbek) ekanligini sodda va ravon tarzda o‘quvchiga yetkazadi. Yana matn tahlilida Andijon elining musiqaga qiziqqanligi va el orasda san‘at ahlining ko‘pligini o‘sha davrdagi mashhur sozanda Xoja Yusuf Andijon farzndi ekanligini anglaymiz. Ya’ni:

“Elining orasida san’atkorlari ko‘p. Musiqada mashhur Xoja Yusuf Andijonlikdur”.

“Boburnoma” ning birinchi qismida Bobur Andijon havosini tariflab havosi bir oz og‘irroq ekanligini kuz paytlari shahar xalqi bezgakdan qiynalishini aytadi: “Havosining rutubati bor kuz paytlari xalq ko‘p bezgakka chalinadi”.

“Boburnoma”da keyingi o‘rinlarda Farg‘ona viloyatining yetti shaharchasi tarifi keltirib o‘tilganini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Shaharlarni tariflash chog‘ida birinchi o‘rinda O‘sh shahrining tarifi beriladi, lekin shaharga berilgan tarifda etnografik ma’lumotlar uchramaydi. Asarda keyingi o‘rinda Marg‘ilon shahri haqida so‘z boradi.

⁴⁰ Захириддин Мухаммад Бобур Энциклопедияси. Т.: «Sharq» Нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. – 2014. – Б. 15.

“Yana biri Marg‘ilondir. Andijonning g‘arbida. Andijondan yetti yig‘ochlik masofa”.

Keyingi o‘rinlarda muallif shahar aholisi haqida tarif berib shahar aholisini tojiklar tashkil etganligini, va elini juda serjaxl deya ta’riflaydi. Ushbu ma’lumotlar isbotini quyidagi matn tahlilidan bilib olamiz.

“Eli tojiklardir. Mushti yugurak va serjanjal el. Jangarilik Movarounnaxrda odatdir Samarqand va Buxorodagi jangarilarning aksari marg‘inonlikdir”.

“Boburnoma” ning birinchi qismida Bobur Farg‘ona viloyatidan tashqari Movarounnaxrning bir qator shaharlari Toshkent, Samarqand, Buxoro vilotlari shaharlarining tarixi va u erlarning tabiati va eng muximi bir qator etnografik ma’lumotlarni taqdim etadi. Asarda Samarqand shahri haqida shunday ta’rif beriladiki, ushbu ta’riflar ham tarixiy ham etnografik ma’lumotlarni o‘zida jamlagani bilan ahamiyatlidir.

“Yer yuzining aholi yashaydigan qismida Samarqandcha latif shahar kamroqdir. Beshinchi iqlimdandir...”

“Samarqand shahri ajoyib orasta bir shahardur. Bu shaharning bir xususiyati borki, bunaqasi kamdan - kam shaharda bo‘ladi, ya’ni har bir hunarmandning alohida bozori bor, bir - biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdur. Yaxshi nonvoyliklari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddan chiqadi”.

“Hech dushman qadar va g‘alaba bilan buni egallolmagani uchun (xalq orasida) “baldayi mahfuza” – “himoyadagi shahar” deydilar. Samarqand hazrati amir ul – mo‘minin Usmon zamonida musulmon bo‘lgandir. Elining barchasi sunniy, pok mazhab va shariatga amal qiluvchi diyonatli eldir. Hazratu Rasuli Akram zamonlaridan beri Movarounnahrda (el orasidan) shunchalik ko‘p islom imomlari etishib chiqqanlarki boshqa viloyatlarning birortasida bunchalik ko‘p imom kuzatilmagan. Kalom ilmi imomlaridan bo‘lgan Shayx Abumansur Samarqandning Moturid mahallasidandur”.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan biz Samarqand aholisini o‘sha davrda yashash tarzi, odatlari, hunarmandchiligi, islomning sun’iylik

mazhabida bo'lganligini va halq orasidan o'sha davrning buyuk islom ulamolar etishib chiqqanligini bilib olamiz. Ushbu tarixiy - etnografik faktlar tarixda Boburning Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni ishg'ol qilgani, lekin nima uchun yana hokimyatni qo'ldan boy bergan? degan savollarga yana bir bor aniq javoblar olishga imkon yaratadi. Bobur ikkinchi bor Samarqandni qo'lga kiritgan ammo Shayboniylar (Ubaydullo Sulton, Muhammad Temur Sulton)dan yengilib Qobulga qaytgan. Ushbu voqealarning sababi oddiy. Biz yuqoridagi matn tahlilida Bobur Samarqand xalqining "sunniy pok mazhab va shariatga amal qiluvchi diyonatli eldir" "Viloyatlarning birortasida bunchalik ko'p imom kuzatilmagan" kabi so'zlarini eslaylik. Voqealar rivojida Shayboniylar Samarqandning imomlari va pok mazhab sunniy elini o'z farzandi Boburmirezoga ustalik bilan qarshi qo'ydilar. Ana shu voqealardan keyin Bobur butunlay Afg'onistonga ketishga majbur bo'ladi. "Boburnoma"ning birinchi qismida Movarounnaxrda istiqomat qilayotgan boshqa xalqlar, elatlar, qabilalarga urug'larga oid bir qator ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Turkiylar: "Boburnoma"da ular bilan bog'liq bir qator ma'lumotlar keltirilgan. "Boburnoma"ning Farg'ona qismida bu so'z kishining fel atvoriga oid sifat manosida keladi. Asarning Hindiston qismida esa o'zbeklar turkiy qavmning qismi sifatida zikr etilgan.

Turkmanlar: asarda turkmanlar bilan bog'liq bir qator ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Xususan Yunusxonning taxtga chiqishida turkman charos qabilalari muhim rol o'ynagan. Qoraqayunli qabilalari Sulton Abusaidga xizmat qilgan.

Bobur Qobul taxtiga o'tirgach bir qator turkman beklari uning xizmatiga kiradi. Shuningdek Xurosondagi harbiy siyosiy voqealarda faol ishtirok etishgani Qobul viloyatidagi turkman xazoralari bilan to'qnashuvlar tafsilotlari bayon etiladi.

Chakraklar: "Boburnoma" ning birinchi qismida Andijondan janubdagi tog'larda yashovchi elat sifatida qayd etilgan. Andijon viloyatining saxronishinlaridin bir chakrak elidur , qalin eldur besh, olti ming uyluk el

bordur. Farg‘ona bilan Qoshg‘ar orasidagi tog‘larda bo‘lurlar. Otlari ko‘p qo‘ylari qalindur. Ul tog‘larda o‘y(sigir) o‘rniga qo‘tos saxlarlar, qo‘toslari ham bisyor bo‘lur⁴¹.

Bobur yana mazkur joydagi elatlar tog‘lar orasida yashagani sababli biron bir hukmdorga soliq to‘lamaganini (1498-99) yil voqealari bayonida esa bu xalqni bo‘ysundirganini yozadi.

“Marg‘inonga kirganimizdan ikki–uch kun o‘tgach, Qosimbekka Pashog‘ardan yangi navkar bo‘lganlar va Alido‘stbekning navkarlaridan yuzdan ko‘proq kishini qo‘shib, Andijonning janub tarafidagi tog‘ ellariga - Ashporiyon, Turuqshoron, va Chakrak kabi tumanlarga biz tomonga moyil qilish yoki zo‘rlilik bilan o‘sha yellarni itoatga keltirish uchun yuborildi”.

“Boburnoma”ning voqealar rivojida keyinchalik nafaqat chakrak eli ulardan boshqa elatlar Boburga bo‘ysunib unga qo‘shilgani haqida ma’lumot beriladi.

“Boburnoma”ning ikkinchi qismi Xurson, Qobul va uning atrofidagi voqea va hodisalar bilan bog‘liqdir. Avvalo, Xuroson deganda Shimoli-sharqiy eron, Shimoliy Afg‘oniston, Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlar tushuniladi.

“Boburnoma” asarida Xurosonda sodir bo‘lgan voqealar Sulton Husayn Boyqaro, uning rafiqasi Xadicha Begim, o‘g‘illari Badiuzzamon va Muzaffar Husayn va nabirasi Mo‘min Mirzolarining nomlari bilan bog‘liq ravishda keltiriladi. Asarda Boburning o‘zi Kobulda hokimiyatini o‘rnatgani va u erda amalga oshirgan ishlari, bunyodkorlik faoliyati, jangu jadallari haqida bayon qiladi. “Boburnoma”da Bobur qanday qilib Qobul va uning atrofidagi yerlarni bosib olgani, afg‘on qabilalarini bo‘ysundirib yangi davlat barpo etganligi to‘g‘risida extirolarga to‘lib gapiriladi. Bobur Afg‘onistonning, ayniqsa xushhavo tabiati, Qobul manzarasini, xalqi va odamlarini, maroqli va jozibali til bilan bayon etar ekan, ularning tasvirini turli qiziqarli sarguzasht, rivoyat va o‘zining o‘tkir mushohadalari natijasida yaratilgan rang – barang

⁴¹ Захириддин Мухаммад Бобур Энциклопедияси. – Т.: «Sharq» Нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2014. – Б. 556.

badiiy vositalar bilan bezab hikoya qiladi. Masalan Bobur Qobul viloyatining aholisi haqida gapirar ekan uni shunday tariflaydi:

“Muxtalif aqvom Qobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok va aymoq va a’robdur. Shahrida va ba’zi kentlarida sortlardur. Yana ba’zi kentlarida va viloyotlarida pashoyi va paroji va tojik, baraki va afg’ondur. G’arbiy tog’larida hazoriy va naqdariylar. Bularning orasida ba’zi mo’g’uliy til bila hikoyat qilurlar... O’n bir – o’n iki lafz birlan Qobul viloyatida talaffuz qilurlar... Muncha muxtalif aqvom va mug’ayyir alfoz malum emaskim xech viloyatta bo’lg’ay”.

Ya’ni: “Qobul viloyatida xilma-xil qavmlar bor. Tog’ orliqlari va tekisliklarda turklar, aymoqlar, saxroyi arablar, shahar va ba’zi kentlarida sartlar istiqomat qilishadi. Yana ba’zi kentlari va viloyatlarida pashoyi, paojiy, tojik, barakiy, va afg’onlar yashashadi. G’arbiy tog’larida hazora va nakdariylar yashaydilar. Bularning orasida ba’zilari mo’g’ul tilida gaplashishadi. Qobul viloyatida o’n bir – o’n ikki tilda so’zlashadilar: arabiy, forsiy, turkiy, mo’g’ul, hindiy, afg’oniy, pashoyi, g’abriy, barakiy, lamg’oniy. Biror viloyatda bunchalik xilma – xil so’zlashuvchilar borligi ma’lum emas⁴²”.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki Bobur uchun afg’on qabilalarinini bo’ysundirish, Qobul va uning atrofidagi yerlarni birlashtirib davlat barpo etish, oson kechmagan. Bu haqida Boburning o’zi shunday yozadi:

“Ningnaxor bilan Qobul orasi juda yomon yo’ldir uch – to’rt yerida kichikroq – kichikroq dovonlari, ikki uch yerda tor daralar bor. Xirilji va barcha yo’lto’sar qaroqchilar afg’onlardir. Bu erda el yashamas, yo’lto’sarlar ko’p obodonchilik yo’q edi. Qo’ruqsoyning etagi – Qoratu mavzesini men soldirdim shundan keyin yo’l havfsiz bo’ldi”⁴³.

Bobur Qobuldagi faoliyati davomida afg’on qabilalaridan karoniy, kiviyy, sur isohayl, niyoziy xiriljiy, baluj, arg’un pashoyi qabilalari bilan urush qilib

⁴² Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O’qituvchi, 2017. – B.141 .

⁴³ O’sha asar. – B. 142.

bu qabilalarning juda ko‘pchiligini bo‘ysundirishga erishgani, ba’zi qabilalar jangsiz taslim bo‘lganini “Boburnoma”da ko‘p bor etirof etadi. Shuningdek, asarda Boburning bo‘ysunmay urush olib borgan qabilalarga, qaroqchi yo‘lto‘sarlariga nisbatan ko‘rilgan tadbirlar, jazolar, xattoki qirg‘in qilingan qabilalarning boshidan tiklangan kallaminorlar haqida ham ma’lumotlar beriladi. Masalan:

“Bangash va Naxor tog‘laridan o‘tgan zahotyok tep – tekis erda bunyod topgan Bannu boshlanadi. Shimol tomonda Bangash anxori Bannuga chiqadi Bannu shu suv bilan oboddir. Janubda Cho‘para va Sind daryosi bor. sharqi Dinkot g‘arbi dashtki, Bozor va Tok ham deydilar. Afg‘on qabilalaridan karoniy, kivi, sur, isohayl, niyoziy shu viloyatni egallashgan. Bannuga tushgan zahtiyok habar topildiki, dashtdagi bir qabila shimoldagi tog‘larni singirlab turipti. Jahongir Mirzo boshchiligida lashkar yuborildi. Kivining singiri ekan. Borib qisqa vaqtda olib, ommaviy qatl etib, ko‘p bosh kesib keltirdilar. Oq matodan lashkar eliga ancha tushdi Bannuda ham kallaminora ko‘tarildi. Bu singir olingandan so‘ng kivining ulug‘laridan Shodixon ismli kishi o‘t tishlab keldi. Asirlarni ozod qildik”⁴⁴.

Shu o‘rinlarda matnda ikki tushuncha bir qarashda tushunarsiz ko‘rinadi, bular “singir va “o‘t tishlab keldi” so‘zlaridir. E’tibor bilan qaralsa “Boburnoma”da bu tushunchalarga qisqa ta’riflar berib o‘tilgan. Ya’ni:

“Singir” so‘zini Qobulga kelganda eshitdik. Bu el tog‘ni tosh bilan to‘shni singir deyisharkan”.

“Afg‘onlar urushmoqdan ojiz bo‘lsalar dushmanlarining oldiga o‘t tishlab kelar ekan. Ya’ni bu – men sening molingman degani ekan. Bu odatni o‘sha yerda ko‘rdik. Ojiz qolgan afg‘onlar o‘t tishlab keldilar”.

“Boburnoma”ning Qobul qismida etnografik manbalar asosan Afg‘oniston hududida yashagan qabila va elatlar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi lekin, shuni aytib o‘tish kerakki bu malumotlarda qabilalarning kelib chiqishi va bu xalqlarning etnografik tub ildizlari haqida ma’lumotlar kam. Bundan

⁴⁴ O‘sha asar. – B. 154.

tashqari asarda pashoyilar, xiriljilar, g‘abriylar, barakiylar kabi qabilalar va afg‘on xalqi haqida etnografik ma‘lumotlar uchrasada, bu qabila va elatlarning urf odatlari madaniyati kiyimlari haqidagi ma‘lumotlar ancha kamchilikni tashkil etadi.

Shunday bo‘lishiga qaramay asarda bir qator qabilalarning urf odati, kiyinishi va diniy qarashlariga doir ma‘lumotlarni uchratamiz “Boburnoma” ning keyingi o‘rinlarida Afg‘oniston hududlarining juda ko‘p joylarida yashovchi urug‘, qabila, ellatlarining kundalik hayoti bilan bog‘liq ma‘lumotlarni uchratamiz. Asarda muallif bu hududlarni ta‘rifini keltirish bilan birga bu erda yashovchi aholini, ularning turmush tarzi, kiyinishi urf – odalariga oid ma‘lumotlarni ham keltirib o‘tadi.

Masalan: “Yana bir tuman Nijrov tumanidir. Qobulning sharqiy – shimolidagi tog‘lik maskan. Orqasidagi tog‘larning hammasi Kofiristondir. Ajib bir go‘sha. Uzun va mevasi ko‘p sharobi ham ko‘p bo‘ladi. Biroq qaynatma qiladilar. Qish mavsumi tovuqni ko‘p parvarish qiladilar. Eli sharbxo‘r, benamoz, qo‘rqmas va kofirtabiat eldir...

...Bu tog‘liklar elining chirog‘lari faqat chilg‘o‘za yog‘ochidandir. Shamdek yonadi juda g‘aroyib”.

Yana: “Yana biri G‘urband tumanidir. U viloyatlarda dovoni baland deytilar. G‘orga bu dovon orqali boradilar. Aftidan shu sababli G‘urband deytilar. Daraning bosh qismlarini xazoralar egallab olishgan”...

...“Yana tog‘ etagi kentlari bo‘lib boshi Mitakacha, Parvona, va pasti Durnoma, o‘n ikki – o‘n uch kentdir. Sharoblari kayf beruvchidir. Bu orada Xojaxon Sayyidning sharoblari hammasidan achchiqroq. Bu kentlar batamom tog‘ etagi va tog‘da joylashgani uchun mol soliqlarini to‘lab tursalarda, lekin xarjda, istemolda, pul muomilasida yaxshi emaslar”.

Asarda keyingi o‘rinlarda Afg‘onistonning Qobul viloyatiga tobe boshqa tumanlari: Bomiyon, Istalif, Lahugar, haqidagi ma‘lumotlarni, hamda viloyatlardan G‘azna, shuningdek Alasoy qishlog‘i haqidagi ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin Ushbu ma‘lumotlar orasida viloyat va tumanlar hududiga

oid ma'lumotlar bilan bir qatorda kichik – kichik, qisqa satirlarda keltirib o'tilgan etnografik ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan: muallif asrda Bomiya tog'larini tariflab bu tog'dagi muzliklar tuganmas sekin eruvchi muzliklar ekanini aytadi. Shu bilan birga ushbu ta'rifda muhim etnografik ma'lumotlarni ham ilova qiladi: “ Uning qori keyingi yil qorigacha etadi, keyingi yilga qor etmaydigan yil kamdan kam bo'ladi. Qobulda muzdonlar muzi tugasa shu tog'dan qor keltirib yaxob qilib ichadilar”.

Shuni alohida takidlash kerakki, “Boburnoma” da Bobur ma'lumotlarni keltirish bilan birga ushbu ma'lumotlarning qanchalik haqiqatga yaqin yoki uzoqligi haqidagi malumotlarni ham keltirib o'tganligining guvohi bo'lamiz. Bunday masalalarga muallifning sofdillik bilan xolisona yondoshuviga bir necha bor guvoh bo'lganimizni eslaylik.

Yana bir misol: “G'azniga kelganimda, G'aznining kentlarida bir mozar bordurki, salovot aytilgach, qabr xarakatga keladi, deb aytdilar. Borib ko'rdik qabrning tebrangani sezildi. So'ngra ma'lum bo'ldiki bu hol qabr xizmatchilarining hiylalari ekan”.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Bobur o'z asarida nimani yozmasin, qanday ma'lumot keltirmasin faqat rost, va haqiqatga yaqin ma'lumotlarni yozishga xarakat qilgan.

“Boburnomaning ikkinchi qismida keltirilgan ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki shoh Bobur, Afg'onistonni egallab tinch va osuda hayot kechirmadi. Qobul va Afg'oniston hududlarini egallashdan maqsad bu hududlar Bobur uchun Hindistonga o'tish uchun ko'priklar vazifasini o'tab berganligini biz tarixdan yaxshi bilamiz.

Asarning keyingi fasllarida voqealar rivoji asta sekin puxta o'ylangan rejalar asosidagi urush sahnalariga boy Hindistonga ko'chadi.

XULOSA

“Boburnoma” asarida keltirilgan ma’lumotlarni ilmiy nuqtai nazardan o’rganish masalasi so’nggi yillarga kelib jiddiy ravishda o’rtaga qo’yildi. Asrlar davomida tarix fani va sharqshunoslik erishgan yutuqlar va yuzaga keltirgan xulosalarni ilmiy nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqish va baholashdek juda mas’uliyatli va murakkab muammo hali ham to’la yechilgani yo’q. Bunday sharoitda har bir muhim ilmiy masala bo’yicha xilma-xil fikrlarning mavjud bo’lishi tabiiy hol albatta. Bu asar yuzasidan ham juda ko’p fikr va mulohazalar o’rtaga tashlangan hamda muhokama maydonida dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Biz mavzuni tahlil etish davomida “Boburnoma” asari eng avvalo Zahiriddin Muhammad Boburdek tarixiy shaxsning shaxsiyati va hayot yo’lini ilmiy jihatdan o’rganishda eng muhim manba ekanligini yana bir karra isbotladi. Insoniyatning abadiyatga mansub buyuk farzandlari sifatida shoh va shoir, mislsiz adib va tarixchi Zaxiriddin Muhammad Bobur o’z o’rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi.

Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko’p qirrali faoliya va ijod sohibi edi.

Birgina “Boburnoma” uning yuzdan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir. Qisqa umri davomida Zahiriddin Muhammad Bobur ko’pgina asarlar yozdi. Ana shular orasida garchi ularning hamasi bizgacha etib kelmagan bo’lsada “Boburnoma” tengi yo’q noyob asardir. “Boburnoma” ulug’ bobomizdan qolgan eng muhim va yirik merosdir.

“Boburnoma”ning muhim va noyoblighi shundaki unda Markaziy Osiyo, Afg’oniston, Pokiston, Hindiston, Eron xalqlarining bundan besh yuz yil ilgarigi tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasiga oid nodir ma’lumotlar berilgan.

Darhaqiqat, Bobur jahongashta sayyoh va ulug‘ tabiatshunos olim bo‘lgan. U yoshligidan sayohatda bo‘lishni sevgan, safarlarga chiniqib Farg‘ona vodiysini Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xisor va Hirotgacha bo‘lgan barcha shahar va qishloqlarni vo‘ha va tog‘larni kezib, taqdir taqozosi bilan Afg‘oniston, Eron, Pokiston va Hindiston o‘lkalarida bo‘lib, qimmatli ilmiy ma‘lumotlar yozib qoldirgan.

Zero Bobur o‘zi qiziqqan har qanday soha bo‘yicha chuqur bilimga, va katta ilmiy mushohadaga ega bo‘lgan inson bo‘lgan. U har bir soxani aniq bilishga intilgan va o‘zi yashagan hukmronlik qilgan, ijod qilgan shaharlar Andijon, Qobul va Agra atrofidagi joylar aholisning etnik tarkibi, geografik tuzilishi, tabiati, ma‘muriy bo‘linishi, suvlari, vodiylari va u erlarda o‘sadigan o‘simliklar haqida batafsil ma‘lumot berib, giologiya faniga xos qazilma boyliklar, geotektonik jarayonlar va zilzilashunoslik - seysmologiya faniga xos o‘z fikr mulohazalarini ham aniq va ravshan tilda bayon etishi kishini lol qoldiradi, albatta. Bobur o‘z zamonasida mamlakatda hamjihatlik o‘rnatish bilan bir qatorda moddiy va manaviy boyliklar bunyod etib mo‘l-ko‘lchilikni ta‘minlashga alohida e‘tibor beradi. U joylarning tabiiy boyliklarini aniqlab tasvirlar ekan, ularning xo‘jalikdagi ahamiyati insonlarga qanday nafi borligi haqida ham aniq malumotlarni bayon qiladi.

“Boburnoma”da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

“Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistondagi hukmdorlik davriga bo‘linadi.

Birinchi qismda Boburning otasi temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi, ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi, Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallarining

behuda ketishi, va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan.

Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u erda 1508-yilda mustaqil davlat tuzgani, eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani, lekin shayboniylardan Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton qo‘shinlarida engilib, Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan.

Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib, Shimoliy Hindistonni bosib olgani va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat.

“Boburnoma”da keltirilgan barcha ma’lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shimoliy Afg‘onistonning XV asrning 80-90-yillari va XVI asrning 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi.

Asarda ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqa soxalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari, qo‘rg‘onbuzar qurilmalar haqida batafsil ma’lumotlar olish mumkin.

“Boburnoma” o‘zidan avvalgi va o‘zidan keyingi asarlardan bir qator farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Muallif asarda tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda, voqea sababchilari va ishtirokchilari bo‘lgan xalq, urug‘, qabila, elatlarning kelib chiqishi, yashash tarzi, urf-odatlar va qarashlarini imkon qadar o‘zi ko‘rgan ma’lumotlar asosida yoritib beradi.

“Boburnoma”da XIV – XVI asrlarga oid ko‘plab etnografik ma’lumotlar berilgan. Asrning bu xususiyati, barcha yirik tarixchi – sharqshunoslar hamda Markaziy Osiyo etnografiyasi tarixi bo‘yicha mutaxassisleri tomonidan qayd etilgan. Asardagi etnografik ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda qay darajadadir istifoda qilingan. Masalan, Afg‘on qabilalari va ularning joylashuvi haqida dastlabki, batafsil va ishonchli ma’lumotlar, Boburning “Vaqoyi”sida keltirilgan bu ma’lumotlar asosan uning shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan va yuqori darajada aniqligi bilan ajralib turadi,

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Zahiriddin Muhammad Bobur O‘zbekiston farzandi o‘zbek halqi uning bosib o‘tgan sharaflari va mashaqqatli umr yo‘lidan g‘urur, avlodlarga qoldirgan ilmiy merosidan bahramand bo‘lib faxr tuyg‘ularini tuyishga to‘la haqli. Shunday ekan ajdodlarning munosib davomchisi sifatida ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy merosini har qancha o‘rgansak , tadqiq etsak shuncha oz.

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub bo‘lgan “Boburnoma” asari ham boy ilmiy merosimizning bir qismini tashkil etadi. Uni o‘rganish tadqiq etish tarixiy voqealardan xulosa chiqarish biz yoshlarga sharaflari burch , sharaflari vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

I. Rasmiy adabiyotlar:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. –Т.: “Ўзбекистон”, 1992.– 230 б.
- 1.2. Каримов И. А. Ўзбекистон-бозор мунособатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. –Т.: “Ўзбекистон”, 1993.– 224 б.
- 1.3. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1995.– 230 б.
- 1.4. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.: “Ўзбекистон”, 1996.– 185 б.
- 1.5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997.– 165 б.
- 1.6. Каримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.: “Ўзбекистон”, 2015.– 304 б.
- 1.7. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч –Т.: “Маънавият”, 2008.

II. Ko'p jildlik adabiyotlar:

- 2.1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2002. I том, 736 б.
- 2.2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2002. II том, 704 б.
- 2.3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2002. III том, 704 б.
- 2.4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2002. IV том, 704 б.
- 2.5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2005. IX том, 556 б.
- 2.6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2005. X том, 704 б.

2.7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2005. XI том, 704 б.

III Adabiyotlar

3.1. Захириддин Муҳаммад Бобур Энциклопедияси. –Т.: “Шарқ” Нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2014. 665 б.

3.2. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 2017. 368 б.

3.3. Бобобеков Х, Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. –Т.: “Шарқ” Нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2000. 400 б.

3.4. Жалилов С. Бобур ва Андижон. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1993. – 102 б.

3.5. Жалилов С. Бобур хақида ўйлар. – Т.: “Шарқ” Нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2006. 112 б.

3.6. Машрабов З, Шокаримов С. Асрларни бўйлаган Бобур. –Т.: “Ўзувчи” нашриёти, 1997. 176 б.

3.7. Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. – Т.: “Фан” нашриёти, 1994. 46 б.

3.8. Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда, –Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1995. 106 б.

3.9. Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Т.: “Шарқ” нашриёти, 2009. 115 б.

3.10. Қосимов Й. Қадимги Фарғона сирлари. Намангон, 1992. 88 б.

IV. Internet materiallari

4.1. www.lex.uz

4.2. www.refarat.uz

4.3. www.achiv.uz